

H. B. ALOVITDINOVA , S. I. SOY, D. K. RAJABOVA

ENGLISH FOR BEGINNERS

(Ingliz tilini o'qimagan yoki uni juda kam biladigan
litsey, kollej hamda oliy o'quv yurtlarining o'quvchi va
talabalari uchun o'quv qo'llanma)

Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti
Toshkent — 2009

H. B. Alovitdinova va boshqalar.

English for beginners: Ingliz tilini o'qimagan yoki uni juda kam biladigan litsey, kollej hamda oliy o'quv yurtlarining o'quvchi va talabalari uchun o'quv qo'l. / H. B. Alovitdinova, S. I. Soy, D. K. Rajabova; Mas'ul muharrir: N. Zufarova. — T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. — 144 b.

Mas'ul muharrir

N. Zufarova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar:

Z. M. Majidova, A. H. Fayziyeva, S. A. Gevorgyan.

ББК 81.2 АНГЛ

ISBN-978-9943-06-200-9

© Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi
nashriyoti, 2009-y.

SO‘ZBOSHI

Sizga taqdim qilinayotgan ushbu o‘quv qo‘llanma umuman ingliz tilini o‘qimagan yoki uni juda kam biladigan litsey, kollej va oliy o‘quv yurtlarining o‘quvchi va talabalariga mo‘ljallangan.

U ikki qismdan iborat:

1. Fonetika kursiga kirish. 2. Asosiy qism.

Ingliz tili fonetikasiga kirish qismida ingliz harflarining o‘qilishi, tovushlar talaffuzi, harflar o‘qilishidagi ba’zi bir mustasnolar va to‘rtta matn berilgan.

Asosiy qism esa o‘n bitta darsdan iborat. Har bir dars ma’lum matn, dialog va mashqlar majmuyidan iborat. Matnlar uchun yangi so‘z va birikmalar lug‘ati, fonetika, leksika va grammatikaga oid qoidalar tushunarli tarzda berilgan. O‘quvchilar ingliz tilini o‘rganishga asos boladigan qoidalarni o‘z ona tillarida o‘rganadilar.

Yuqorida zikr etilgan ikki qismdan tashqari, kitobda tili o‘rganilayotgan Buyuk Britaniya va AQSH hayoti haqida matnlar, fonetik va grammatik ko‘rsatkichlar, geografiyaga oid nomlar va noto‘g‘ri fe‘llar jadvali berilgan.

Kelgusida kitobdagi talaffuz qilish uchun berilgan matn va mashqlarni disk va audio kassetalarga yozib, ulardan lingafon xonalarida foydalanish mo‘ljallanmoqda.

Bu qo‘llanmani ingliz tilini o‘rganishni boshlovchi o‘quvchilar uchun darslik sifatida qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Ushbu qo‘llanmani yozishda chet elda chop etilgan darsliklardan foydalanildi.

INGLIZ TILI FONETIKASIGA KIRISH

Til odamlar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasi bo'lib, nutqda og'zaki va yozma shaklda qo'llanadi.


Og'zaki nutq gaplardan, gaplar so'z va so'z birikmalaridan, so'zlar esa nutq tovushi (fonema)dan tarkib topadi. Fonema so'zning ma'noli qismlarga bo'linmaydigan eng kichik bo'lagidir. U so'z ma'nolarini ifodalash va farqlash uchun xizmat qiladi. Har bir tildagi fonemalar yig'indisi fonemalar sistemasi deyiladi.

Yozuv esa og'zaki nutqni aks ettiradi va mustahkamlaydi.

Biz ingliz tilini o'rganishda bu til talaffuzidagi murakkabliklarni hisobga olgan holda, avvalo, harf va tovushlar haqidagi ma'lumotlar va fonetikaga oid mashqlarni taqdim etamiz.


I. Ingliz tilida yozuv va o'qish

Ingliz tilida harflar uch xil katta-kichiklikda yoziladi. Ular to'rt chiziq o'rtasida o'rganiladi. Birinchi xil kattalikdagi harflar belbog'siz, halqasiz bo'ladi.




The image shows the lowercase letters 'a', 'e', and 'n' written in a cursive style on a four-line grid. Each letter is positioned between the second and third lines from the top.

Ikkinchi kattalikdagi harflar kichik halqali va belbog'li harflardir.




The image shows the lowercase letters 'p', 't', and 'd' written in a cursive style on a four-line grid. Each letter is positioned between the second and third lines from the top, with a small loop at the bottom.

Uchinchi xil kattalikdagi harflar katta halqali va bosh harflardir.



The image shows the uppercase letters 'b', 'f', 'l', and 'B' written in a cursive style on a four-line grid. Each letter is positioned between the second and third lines from the top, with a large loop at the bottom.

Ingliz yozuvi qoidasiga binoan bir so'zni yozib bo'lmaguncha qo'l olinmaydi, nuqta, belbog' kabi belgilar esa keyin qo'yiladi.



The image shows the word 'examination' written in a cursive style on a four-line grid. The word is written in two parts, with a space between them, and is positioned between the second and third lines from the top.

Transkripsiya

Ingliz tilidagi soʻzlarda bir harf doimo bir xil tovushni koʻrsatmaydi. Har bir harf soʻzda kelgan oʻrniga qarab, turlicha oʻqiladi.

Soʻzlarni toʻgʻri oʻqishni oʻrganish uchun maxsus belgilar qoʻllanadi. Ular lotin alifbosi asosida tuzilgan tovush belgilaridir.

Ana shunday tovushlar yordamida yoziladigan yozuvga transkripsiya (yozuvi) deyiladi. Misol uchun a harfi toʻrt xil soʻzda toʻrt xil oʻqiladi.

Can [kæən] car [ka:]
Cane [keɪn] care [kæə]

Ingliz alifbosida 26 harf, 44 ta tovush bor. Shulardan 6 ta unli harf (**a, o, u, e, i, y**) 20 ta unli tovush bilan, 20 ta undosh harf 24 ta undosh tovush bilan oʻqiladi.

Boʻgʻin turlari

Oʻzbek tilida 2 ta boʻgʻin turi bor: ochiq va yopiq: bola — bo-la (ochiq), daftar — daf-tar (yopiq).

Ingliz tilida 4 ta boʻgʻin turi bor: **2 ta ochiq boʻgʻin, 2 ta yopiq boʻgʻin.**

Ingliz unli harflarining I yopiq va II ochiq tur boʻgʻinlarda oʻqilishi

Harf Boʻgʻin turi	Aa	Oo	Ee	Ii	Yy	Uu
/	[æ] №4	[ɔ] №6	[e] №3	[i] №2		[ʌ] №10
	Ann [æən]	On [ɔn]	End [end]	In [ɪn]	Kydd [kɪd]	Up [ʌp]
	Tab [tæb]	Not [nɒt]	Ten [ten]	Sit [sɪt]	pyx [pɪks]	Hut [hʌt]
	[eɪ] №13	[ou] №14	[i:] №1	[aɪ] №15		[ju:] №9
//	Name [neɪm] tape [teɪp]	Note [nɒt] home [həʊm]	Me [mi:] Pete [pi:t]	Site [saɪt] line [laɪn]	My [maɪ] type [taɪp]	Use [ju:s] tune [tju:n] [u:] № 9 rule [ru:l]

I, II tur bo'g'inlar tavsifi

1. **R r** harfidan boshqa har qanday undosh harf bilan tugaydigan yopiq bo'g'inga I tur yopiq bo'g'in deyiladi.

Misol: in, tap, bed, tell.

2. II tur ochiq bo'g'in deb, shunday ochiq bo'g'inga aytiladiki, bu ochiq bo'g'indan keyingi bo'g'in **R r** harfidan tashqari har qanday undosh harf bilan boshlanib ketadi.

Misol: na-me, fi-ne, li-fe, ti-pe.

3. Ingliz unli harflarining I, II tur bo'g'inlarda ifodalaydigan tovushlari yuqoridagi jadvalda ko'rsatilgan. I tur bo'g'inda unli harflar qisqa tovushlar beradi. II tur bo'g'inda esa unli harflar diftong yoki cho'ziq tovushlar beradi.

Eslatma: 1. **U u** unli harfi II tur ochiq bo'g'inda [ju:] cho'ziq tovushini beradi. *Misol:* use [ju:s], mute [mju:t]. Agar unli **U u** harfi oldida [l,r,f,tʃ dʒ] tovushlarini beruvchi harf yoki harflar birikmasi kelsa, u holda [ju:] tovushidagi [j] tovushini tushirib talaffuz qilinadi.

Misol: blue [blu:] chute [tʃu:t]

rute [ru:t] June [dʒu:n]

2. **Diftong** so'zi grek tilidan olingan bo'lib, ikkita elementdan iborat bolgan bir tovushni bildiradi.

Misol:

name [neim]. Bu so'zda 4 ta harf, uchta tovush bor.

4. Jadvalda uchragan undosh harflar quyidagi tovushlarni ifodalaydi:

Pp [pi:] harfi [p] deb o'qiladi.

Dd [di:] harfi [d] deb o'qiladi.

Tt [ti:] harfi [t] deb o'qiladi.

Kk [kei] harfi [k] deb o'qiladi.

Nn [en] harfi [n] deb o'qiladi.

Ss [es] harfi [s] yoki [z] deb o'qiladi.

Hh [eitʃ] harfi [h] deb o'qiladi.

Mm [em] harfi [m] deb o'qiladi.

Ll [el] harfi [l] deb o'qiladi.

Rr [a:] harfi [r] deb o'qiladi.

Xx [eks] harfi esa undosh harfdan oldin (text) [tekst] va so'z oxirida pyx [piks] [ks] tovushi bilan, unli tovush oldida kelganda (exam) [igzæm] [gz] tovushi bilan o'qiladi.

5. Qo'shaloq bo'lib kelgan undosh harflar bir tovush bilan o'qiladi.

Misol: tell [tel] Ann [æn]

6. **S s** harfining o'qilishi quyidagicha:
S s harfi so'z boshida [s] tovushi bilan o'qiladi:

Misol: a) sit [sit], stop [stɒp].

b) **S s** harfi so'z oxirida:

1) jarangsiz undoshdan keyin turgan bo'lsa, [s] tovushini beradi:
sits [sɪts], *helps* [helps];

2) jarangli undosh va unli tovushdan keyin esa [z] tovushini beradi: *beds* [bedz], *plays* [pleɪz];

3) so'z o'rtasida kelganda **S s** harfi ikki unli o'rtasida [z] tovushini beradi: *visit* [vɪzɪt].

Text One ['tekst wʌn]

'Send Ben. 'Tell Ted. 'Help Ann.

'Send Ben his map. 'Send 'Bess my pen.

'Send me his pen. Tell 'Ted my name.

'Take his note. 'Send me his note.

Faol so'zlar

Send [send] — jo'nat

Ben [ben] — Ben (o'g'il bolaning ismi)

Ted [ted] — Ted (o'g'il bolaning ismi)

Help [help] — yordam qil

Ann [æn] — Anna (qiz bolaning ismi)

His [hɪz] — uning (m.r.)

Map [mæp] — xarita

Pen [pen] — ruchka

My [maɪ] — mening

Name [neɪm] — ism

Take [teɪk] — ol

Note [nəʊt] — izoh, kichkina xat

Sit [sɪt] — o'tir

Still [stɪl] — jim, tinch.

«Text One» uchun tushuntirishlar


So'zdagi bo'g' inning kuchli, alohida ajratib talaffuz etilishiga urg'u deyiladi. Urg'uli bo'g'in oldiga urg'u belgisi (') qo'yiladi.


Ingliz tilida gapdagi hamma so'zlarga urg'u tushavermaydi. Yordanchi so'z turkumlari va ba'zi bir mustaqil so'z turkumlariga urg'u tushmaydi. (Bu haqda keyinroq gaplashamiz.)

'Send Ted his ,bag.

Transkripsiyada so'z hir bo'g'inli bo'lsa, urg'u belgisi (') urg'uli so'z oldiga qo'yiladi. Agar so'z ko'p bo'g'inli bo'lsa, urg'u belgisi urg'uli bo'g'inning oldiga qo'yiladi: *pen* ['pen], *consent* [kən'sent]. Gap oxiridagi ovoz pasayishini ko'rsatuvchi oxirgi urg'uli bo'g'in oldiga (\) belgisi qo'yiladi. Ovoz ko'tarilishini ko'rsatuvchi oxirgi urg'uli bo'g'in oldiga (/) qo'yiladi.

So'zlaganda ovoz ohangining pasayishi va ko'tarilishi intonatsiya (ohang) deyiladi. Ingliz tilida ham o'zbek tilidagi kabi pasayuvchi va ko'tariluvchi ohanglar mavjud. Intonatsiyani tasavvur qilish uchun yozma tasvir qo'llaniladi. Urg'uli bo'g'in uchun belgi (-) chiziqcha, urg'usiz bo'g'in uchun (.) nuqta, urg'uli bo'g'in ko'tariluvchi ohangni ko'rsatsa, yuqoriga qaragan yoy (/), pasayuvchi ohangni ko'rsatsa, pastga qaragan yoy (\) belgilari bilan ifodalanadi. Bu belgilar ikki parallel chiziq orasiga muayyan balandlikda joylashtiriladi.

Misol: 'It is good, [it iz ,gud] 

Is it good? [iz it ,gud] 

Fikr tugallanganligini ko'rsatish uchun ikkita vertikal chiziq (II), tugallanmaganligini ko'rsatish uchun bitta vertikal chiziqdan foydalaniladi.


Buyruq gaplar


Buyruq gaplar buyurishni yoki iltimosni ifodalaydi. Iltimos yoki buyruq bevosita II shaxsga qaratilgan bo'ladi. **Let** so'zi orqali esa I va III shaxsga qaratilgan bo'ladi. Buyruq gaplar boshida fe'l turadi. Ega esa bunday gaplarda bolmaydi. Birlikda ham, ko'plikda ham buyruqni fe'l o'zagi ifodalaydi.

Misol: Tell Ben. (Benga ayt.)

Send Ben pens. (Benga ruchkalar jo'nating.)

Buyruq gaplar pasayuvchi ohang bilan talaffuz qilinadi.

Misol: Send Ted. [send ted] 

Send him. [send him] 

Ingliz tilidagi soʻzlarda boʻgʻin ajratish qoidalari

1. Agar soʻzda ikki unli harf oʻrtasida bitta undosh harf boʻlsa, boʻgʻin chizigʻi ana shu undosh oldidan oʻtadi.

Misol: na/me, ti/me, ki/te, e/ve, ba/by.

2. Soʻzda ikki unli harf oʻrtasida ikkita undosh harf boʻlsa, boʻgʻin chizigʻi shu undoshlar oʻrtasidan oʻtadi.

Misol: pen/ny, in/tend/ doc/tor/ let/ter.

Eslatma:

Agar ikki unli harf oʻrtasidagi ikki undosh harf quyidagilar kabi boʻlsa, u holda boʻgʻin chizigʻi shu ikki undosh oldidan oʻtadi. **bl, dl, tl, gl, cl, br, pr, dr, tr, th** va boshqalar.

Misol: a/ble, i/dle, li/brary, A/pril, ba/the.

3. Soʻzda ikki unli harf oʻrtasida uchta undosh harf kelsa, yuqoridagi qoidalarni hisobga olgan holda boʻgʻin chizigʻi oʻtkaziladi.

Misol: lit/tle, mid/dle.

4. Soʻz oʻrtasida kelayotgan unli harflar digraf bolmasa, boʻgʻin chizigʻi shu unlihar oʻrtasidan oʻtadi. **Digraf** haqida keyinroq toʻxtalamiz.

Masalan: pi/a/no, cu/ri/ous.

MASHQLAR

I mashq. Quyidagi soʻzlarning boʻgʻin turini aniqlab, transkripsiya qiling.

ham	hate	full	fume
bad	made	pull	blue
met	mete	ill	line
bed	be	him	time

hot	home	tab	table
cod	code	lid	little
tip	type	bug	bugle
pyx	cry	bat	bathe

II mashq. Quyidagi so'zlardagi qiyoslab, berilgan tovushlarning talaffuziga e'tibor bering.

[i]	[i:]	[e]	[æ]	[ʌ]	[a:]	[u]	[u:]
il	i:l	end	ænd	ʌn	a:n	ful	fu:l
pil	pi:l	ten	tæn	kʌt	ka:t	pul	pu:l
did	di:d	hen	hæm	hʌt	ha:t	fut	fu:d
stil	sti:l	ges	gæs	dʌt	da:t	tuk	tu:l

III mashq. Quyidagi so'zlarda nechta harf va nechta tovush borligini aniqlang.

Ann, hut, chute, blue, little, time, name, Bess, note, middle.

IV mashq. O o harfini so'zdagi holatiga qarab talaffuz qiling.

not	no	note
sod	so	sole
got	go	home
Tom	toe	tole

V mashq. U u harfining so'zdagi holatini aniqlab, transkripsiya qiling va o'qing.

mule — rule	tune — chute
dune — June	fule — blue
cute — lute	mute — rude
fume — plume	cute — jute

VI mashq. Unli fonemaning o'zgarishi bilan so'zning ma'nosi o'zgarishiga e'tibor berib, talaffuz qiling.

yomon — bad	bed — karavot
yigit — lad	led — boshlab bordi
kishi — man	men — kishilar
qum — sand	send — jo'natmoq
jamo'a — band	bend — egmoq

kulba — hut	hot — issiq
ishqalamoq — rub	rob — o'g'irlamoq
yong'oq — nut	not — emas (yo'q)
zerikarli — dull	doll — qo'g'irchoq
yopmoq — shut	shot — otdi (o'q).

I va II tur bo'g'inda reduksiya holatlari

Urg'usiz bo'g'inda unli tovushning qisqarib va yedirilib talaffuz qilinishiga reduksiya (qisqarish, yedirilish) deyiladi.

Ingliz tilida unli harflar ikki guruhga bolinadi: yumshoq unlilar (e,i,y) va qattiq unlilar (a,o,u). Yumshoq unlilarning urg'usiz bo'g'indagi holati yumshoq reduksiya deyiladi va tegishli tovush o'rniga [i] unli tovush o'qiladi.

Masalan: encamp [in'kæmp] — lagerga joylashmoq, begin [bi'gin] — boshlamoq, city ['siti] — shahar, snowy ['snoui] — qorli.

Qattiq unlilarning urg'usiz bo'g'indagi holati qattiq reduksiya deyiladi va tegishli tovush o'rniga [ə] unli tovush o'qiladi. *Masalan:* consent [kən'sent], submit [səb'mit].

Yumshoq va qattiq reduksiya sifat reduksiyasi bo'lib, u faqat I va II raqamli tur bo'g'inlarga tegishlidir.

Urg'usiz bo'g'inda cho'ziq unlilarning qisqa qilib o'qilishi miqdor reduksiyasi deyiladi.

He ['hi:] [hi] We ['wi:]-[wi'] [wi]

Topshiriq: 1) yuqorida o'tilgan qoidalarni misollari bilan yod oling.

MASHQLAR

I. Quyidagi so'zlarni transkripsiya qiling va reduksiya holatlarini tushuntirib bering.

a'bout	'fatal 'ruby	sub'mit-o'clock
a'go	'pupil 'pocket	at'tract-a'dopt
'comma	'finest 'lesson	'seldom-o'mit.

II. Quyidagi gaplarni to'g'ri talaffuz qiling va yod oling.

1. 'li:v iz' pi:ts ni:s | |
2. 'fɪni'fi:t | it'iznt dɪfɪkəlt | |
3. 'betə'leit | ðən nevə | |
4. 'evri 'kʌntri hæz its,kʌstəm | |

Text Two ['tekst ʤu:]

This is a hat. The hat is black. That is a book. The book is thick. It is on the desk.

That is a notebook. It is thin. The notebook is yellow. The desk is brown. The window is grey.

My name is Jane. I am nine. This is my text-book. It is blue. His name is Tom. He is in the room.

Matn bo'yicha savollar:

1. Is this a hat? Yes, it is.
2. Is the hat blue? No, it is not (isn't). It is black.
3. Is that a pad? No, it isn't. It is a notebook.
4. Is this Jane? Yes, she is.
5. Is that Tom? Yes, he is.

Faol so'zlar:


a hat [hæt] — shlapa
black [blæk] — qora
thick [θɪk] — qalin, yo'g'on
a desk [desk] — parta
on the desk — parta ustida
a note-book ['noutbuk] — daftar
thin [θɪn,] — yupqa, ingichka
yellow [jelou] — sariq
brown [braun] — jigarrang
a window ['windou] — deraza
grey [greɪ] — kul rang
My [maɪ] — mening
A name [ə neɪm] — ism
Nine [nain] — to'qqiz
A text-book [tekstbuk] — darslik
Blue [blu:] — ko'k
His [hɪz] — uning (m.r.)
He [hi:] — u (m.r.)
She [ʃi:] — u (j.r.)
A room [rum] — xona
Is [ɪz] — ...-dir

«Text Two» uchun tushuntirishlar.

Fonetika

Digraf deb o'ziga o'xshagan bir tovushni ifodalovchi ikki harf birikmasiga aytiladi.

I. Th undosh harflar birikmasi (ya'ni digrafi) ikki xil tovush beradi:



Misol: this [ðis], thin [θin]

II. Qo'shaloq oo digrafi k undosh harfi oldidan qisqa [u] unli tovushni, boshqa holatlarda esa cho'ziq [u:] unli tovushni beradi.

Misollar: book [buk] boot [bu:t] too [tu:]
took [tuk] food [fu:d] zoo [zu:]

Quyidagi so'zlar bu qoidadan mustasnodir. Ularni yodda saqlang:

foot [fut] — oyoq
soot [sut] — qorakuya
good [gud] — yaxshi
hood [hud] — kapyushon
wood [wud] — o'rmon
wool [wul] — jun
room [rum] — xona
groom [grum] — otboqar
stood [stud] — turdi
blood [blʌd] — qon
flood [flʌd] — oqim

III. ow digrafi 2 xil o'qilishga ega: 14-raqamli [ou] va 16-raqamli [au], lekin ko'p bo'g'inli so'zlarning oxirgi urg'usiz bo'g'inida kelganda, doimo [ou]. *Misol:* low [lou], now [nəu], window [windou].

IV. Ai, ay, ei, ey digraflari 13-raqamli [ei] diftongini beradi.

Misol: main [mein], vein [vein], veil [veil], day [dei].

V. W w undosh harfi [w] tovushini beradi. Uni talaffuz qilish uchun lablar dumaloq holga keltirilib, cho'chchaytiriladi (ya'ni xartumcha yasaladi): *wood* [wud].

VI. J j harfi [dʒ] tovushini beradi: *just* [dʒʌst].

VII. Y y harfining o'qilishi. Y y harfi so'zda ikki xil tovush bilan ifodalanadi: 1. Unli tovush. Bunda **I i** harfining dublari bo'lib keladi. 2. Yarim unli tovush [j].

1. **Y y** harfi so'zning o'rtasida va oxirida unli harf vazifasini bajaradi va **I i** harfining dublari sifatida to'rttala tur bo'g'ida **i** harfi ifodalagan tovushlarni ifodalaydi.

Misol: lid — lydd [lid] — [lid]
fine — type [fain] — [taip]
firm — myrtle [fə:m] — [mæ:tl]
tire — tyre [taɪə] — [taɪə]

2. **Y y** harfi so'z boshida unli harfdan oldin kelganda, yarim unli tovush [j] bilan ifodalanadi.

Misol: yes [jes], yell [jel]

Uning yarim unli deb atalishiga sabab quyidagicha: 1. Bu tovushni talaffuz qilinayotganda o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramaydi. Bu — unli tovush belgisi. 2. [j] tovushidan keyin kelayotgan unli tovush talaffuziga o'tish oson kechadi. Bu — undosh tovush belgisi.

GRAMMATIKA

I. This, that so'zlari ko'rsatish olmoshlaridir. Shaxsga yaqin turgan predmetni ko'rsatish uchun **this** (bu), nariroqdagisini ko'rsatish uchun esa **that** (narigi) ishlatiladi. Ular gapda urg'u oladilar.

II. Ingliz tilida otdan oldin artikl deb ataladigan yordamchi so'z qollaniladi. Artikllar ikki xil bo'ladi: noaniq va aniq artikllar. Noaniq artiklning ikki shakli bor: **a, an**. Agar so'z undosh tovushdan boshlansa, **a** shakli, unli tovushdan boshlansa, **an** shakli qollaniladi.

Misol: a pen, an egg.

The aniq artiklining esa ikki xil o'qilish shakli bor: so'z undosh tovushdan boshlansa, [ðə], unli tovushdan boshlansa, [ði] shakli talaffuz qilmadi.

Misol: the pen [ðə pen] the egg [ðə eɪ].

III. It so'zi III shaxs birlikdagi olmosh bolib, u jonsiz predmetlar yoki hayvonlar nomi o'rnida keladi. It ba'zan this (bu) ma'nosida ham kelishi mumkin.

IV. is fe'li to be (degan) fe'lining hozirgi zamon III shaxs birligidagi shaklidir. U ham mustaqil fe'l, ham yordamchi, bog'lama fe'l vazifasida kelishi mumkin. Bu fe'ning o'zbek tilidagi tarjimai **-dir** kesimlik qo'shimchasi hisoblanadi.

Misol: This is a book. (qo'shma ot kesimda bog'lama fe'l)

(Bu kitobdir.)

The book is on the desk. (mustaqil fe'l)

(Kitob parta ustidadir.)

V. Ingliz tilida darak gapda so'zlar tartibi. O'zbek tilida gap bo'laklari darak gapning turli joyida tursa ham — gap ma'nosi deyarli o'zgarmaydi.

Misol: Kecha Tom Nikka kitobni berdi.

Nikka kecha Tom kitobni berdi.

Kitobni Nikka Tom kecha berdi va h.k.

Lekin ingliz tilida darak gapda so'zlar (ya'ni gap bo'laklari) tartibini o'zgartirish mumkin emas, ingliz tilidagi gapda so'zlar tartibi qat'iy. Bunga sabab ingliz tilida kelishik va shaxs qo'shimchalarining deyarli yo'qligidir.

0	1	2	3	4	
O'rin yoki payt holi	Ega	Kesim	To'ldiruvchi	O'rin holi	Payt holi
	Tom	sends	Nick the book	—	every week
	Tom	yuboradi	Nikka kitobni	—	har haftada
Every week	Nick	sends	Tom the book	—	—
Har haftada	Nik	yuboradi	Tomga kitobni	—	—

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, gap bo'laklari tartibi o'zgarishi bilan gapning ma'nosi ham butunlay o'zgarib ketadi. Darak gaplar pasayuvchi ohang bilan talaffuz etiladi.

VI. Umumiy so'roq gap.

«Ha» yoki «yo'q» degan qisqa javob beriladigan so'roq gapga umumiy so'roq gap deyiladi. Umumiy so'roq gapda esa so'z tartibi quyidagicha, ya'ni ega oldiga yordamchi yoki bog'lama fe'l chiqarib qo'yiladi va shu fe'l vositasida javob beriladi.

Misol:

Darak gapda:	This is a book. (Bu kitobdir.)
Umumiy so'roq gapda:	Is this a book? (Bu kitobmi?) Yes, it is. (Ha.) No, it is not. (Yo'q.)

Ingliz tilida qisqa javob deganimiz «yes», «no» so'zlaridan tashqari, tegishli kishilik olmoshi bilan ifodalangan egadan hamda yordamchi yoki bog'lama fe'ldan iborat bo'ladi. Ular quyidagicha ohangda talaffuz qilinadi.

Misol:

'Is 'this a ,book?	'iz 'ðis ə ,buk	
Yes, it is.	jes it iz	
No, it is not.	ˌnou it iz ,not	
No, it isn't	ˌnou it,jznt	

VII. Ingliz tilida ham o'zbek tilidagi kabi qo'shma so'zlar mavjud.

Ular oddiy ot bilan ot, ot bilan sifat, sifatdosh bilan ot qo'shilishi orqali yasaladilar.

Misol: A notebook (ot + ot) — daftar
A bedroom (ot + ot) — uxlaydigan xona
A reading-room (sifatdosh + ot) — o'quv xonasi

VIII. **on**, **in** o'rinni ifodalovchi predloglar bo'lib, **on** — ...-da (ustida), **in** — ...-da (ichida) ma'nosini ifodalaydi.

Misol: The book is on the desk. (Kitob parta ustidadir.)
The table is in the room. (Stol xonadadir.)

Topshiriq: «Text two»ni eshiting va yodlang, «Matn uchun tushuntirish»da berilgan qoidalarni yodda tuting.

MASHQLAR

I mashq. oo digrafining so'zdagi holatini aniqlab, talaffuz qiling.

cook — cool	look — loon
foot — food	soot — soon
book — boot	took — tool
coo — moo — zoo — too	

II mashq. ow digrafining o'qilishiga e'tibor berib o'qing.

[au]	[ou]
now	own
cow	low
how	tow
town	shown
allow	flow

III mashq. Digraflarning o'qilishini mashq qiling.

Chain	hay	main	may
[tʃeɪn]	[heɪ]	[meɪn]	[meɪ]
fail	day	tail	bay
[feɪl]	[deɪ]	[teɪl]	[beɪ]
veil	they	heif	fay
[veɪl]	[ðeɪ]	[heɪf]	[feɪ]
beige	bey	lei	bey
[beɪdʒ]	[beɪ]	[leɪ]	[beɪ]


IV mashq. Unli harflarni so'zdagi holatiga qarab transkripsiya qiling.

Toe, music, ice, typist, food, baby, mete, be, too, so, ruby, hay, plate, foot, life, blue, chain, mute, rye, due, bone, finy, soon, rock, table, they, sofa, dyke, now, pony, lie, rule.

V mashq. Quyidagi gaplarni so'roq va bo'lishsiz shaklga qo'ying.

1. This is a table. 2. The table is in the room. 3. That is a text-

923118



book. 4. The text-book is on the desk. 5. The desk is brown. 6. His name is Ben. 7. He is six. 8. She is Jane. 9. Jane is ten. 10. She is in the room.

VI mashq. Nuqtalar o'rniga quyidagilardan mos keladiganini qo'ying: am, in, thick, ten, name, thin, pen, on.

1. His... is Nick. 2. He is... the room. 3. The book is.... 4. She is.... 5. The note-book is.... 6. I... in the room. 7. The ... is blue. 8. The textbook is ... the desk.

VII mashq. Quyidagi gaplarni ingliz tiliga tarjima qiling.

1. Stol jigarrangdir. 2. Men 10 yoshdaman. 3. U — xonada. 4. Deraza ko'kdir. 5. Bu — darslik. 6. Darslik parta ustida. 7. U— o'quvchi. 8. O'quvchi — sinfda. 9. Narigi daftar. 10. Daftar — sumkada.

VII. Dialogni eshiting va yodlab oling.

Dialogue

Sam: Hi, Tom.

Tom: Hi, Sam. How are you?

S.: I am fine, thanks. And you?

T.: I'm fine too. Thanks.

S.: Let's visit Nell.

T.: Oh, yes, let's.

Ingliz unli harflarining III yopiq va IV ochiq tur bo'g'inlarda o'qilishi

III va IV tur bo'g'inlar tavsifi

Harf Bo'g'in turi	A a	O o	E e	I i	Y y	U u
	[ɑ:] №5	[ɔ:] №7	[ə:] №11			
III	Car [kɑ:] Part [pɑ:t]	Nor [nɔ:] Port [pɔ:t]	Per [pɛ:] Term [tɛ:m]	fir [fɪ:] firm [fɪ:m]	Byrd [bɜ:d] Myrtle [mɜ:tl]	fur [fɜ:] curd [kɜ:d]

	[æ] №19	[o:] №7	[iə:] №18	[aiə]	[aiə]	[uə] №21
IV	Care	More	Here	hire	tyrant	sure
	[kɛə]	[mɔ:]	hiə	[haia]	[ˈtaɪərənt]	[ʃʊə]
	Parent	Tory	Merely	pirate	tyre	rural
	[ˈpɛərənt]	[ˈtɔ:ri]	[miəl]	[ˈpaɪərɪt]	[taɪə]	[ˈruərəl]
			mustas-			№21 [juə]
			no			cure
			there			[kjʊə]
			[ðɛə]			during
			u yerda,			[dʒʊərɪŋ]
			where			
		[weə]				
		qayerda,				
		qayerga				

1. III tur yopiq bo'g'in deb, faqat r harfi bilan tugallanuvchi bo'g'inga aytiladi. r harfidan keyin istagan undosh harf turishi mumkin.

Misol: far — uzoq fur — jun
farm — xo'jalik hurt — shikastlanmoq

Unli harfdan keyin kelgan r harfi o'qilmaydi. III tur bo'g'inda hamma unli harflar cho'ziq monoftoglarni beradi.

2. IV tur ochiq bo'g'in deb, shunday ochiq bo'g'inga aytiladiki, undan keyingi bo'g'in r harfi bilan boshlanib, undan keyin unli harf keladi.

Misol: ca-re, he-re, ty-rant

IV tur bo'g'inda unli harflar murakkab unli tovushlar (diftong, triftong) beradi. Triftong uchta elementdan iborat bo'lgan bir unli tovushdir.

3. Ingliz unli harflarining III va IV tur bo'g'inlarida ifodalaydigan tovushlari yuqoridagi jadvalda ko'rsatildi.

MASHQLAR

I mashq. Quyidagi so'zlarni transkripsiya qiling va o'qilishini mashq qiling.

park — hare term — mere purl — pure
darn — dare herb — here curl — cure

horn — bore
corn — core

bird — dire
circle — sire

myrtle — lyre
byrd — tyre

II mashq. Unlilarning so‘zdagi holatini aniqlab, so‘zlarni transkripsiya qiling:

shake — share	wane — ware
sole — sore	note — shore
mete — mere	eve — here
mute — pure	dune — rure
fine — fire	type — tyre

III mashq. Unli tovush cho‘ziqligining o‘zgarishi so‘z ma‘nosininng o‘zgartirishiga e‘tibor berib o‘qing:

o‘ra — pit [pit]	—	Pete [pi:t] — Petya
qopqoq — lid [lid]	—	lead [li:d] — boshlab bormoq
o‘tirmoq — sit [sit]	—	seat [si:t] — o‘rindiqlik, joy
bo‘lak — bit [bit]	—	beat [bi:t] — urmoq
sirg‘anmoq — slip [slip]	—	sleep [sli:p] — uxlamoq

IV mashq. *a* unlisining so‘zdagi holatini aniqlab, transkripsiya qiling:

cap	—	cape	—	car	—	care
bad	—	bade	—	bar	—	bare
lam	—	game	—	jar	—	hare
fat	—	fate	—	far	—	fare

V mashq. *o* unlisining so‘zdagi holatini aniqlab, transkripsiya qiling:

not	—	note	—	nor	—	more
cock	—	coke	—	cork	—	core
hot	—	home	—	horn	—	store
got	—	go	—	corn	—	shore

VI mashq. *e, i, y, u* unli harflarining III tur bo‘g‘inda [ə:] tovushi bilan o‘qilishini mashq qiling.

kerf	fir	curt
term	firm	turn
germ	stir	burn

serf	pirn	hurt
nerve	Byrd	purr

III va IV tur bo'g'inlarda reduksiya holati

Ingliz tilida III tur yopiq urg'usiz bo'g'inda hamma (yumshoq va qattiq) unliharflar qattiq reduksiya holatida bo'ladilar, ya'ni ular o'rniga [ə] unli tovushi o'qiladi.

Misollar:

grammar	['græmə]	grammatika
chapter	['tʃæptə]	bo'lim, bob
doctor	['dɒktə]	shifokor
tapir	['teipə]	tapir (zoo/.)
martyr	['ma:tə]	jafokash, alamdiya
murmur	['mɜ:mə]	shivirlamoq

IV tur ochiq urg'usiz bo'g'inda so'z oxirida faqat u harfigina reduksiyaga uchraydi.

Misol: failure ['feiljə]

t, s, z harflari IV tur urg'usiz bo'g'indagi u harfidan oldin o'zgacha o'qiladi.

<i>Misol:</i> picture	['piktʃə]	rasm
measure	['meʒə]	o'lchov
azure	['eizə]	ko'm-ko'k osmon (shoirona)

So'z o'rtasida kelgan urg'usiz bo'g'inda hamma unliharflar qattiq reduksiya qoidasiga binoan o'qiladi, ya'ni ular o'rniga [ə] unli tovushi o'qiladi.

<i>Misollar:</i> library	['laibrəri]	kutubxona
factory	['fæktəri]	zavod, fabrika
cookery	['kukəri]	pazandachilik
century	['sentjəri]	asr

MASHQLAR

I mashq. Unliharflarning III, IV tur bo'g'indagi urg'usiz holatini aniqlab, transkripsiya qiling.

'grammar	'picture
'stubborn	'century

for'lorn	'injury
'chapter	'cookery
'tapir	per'form
'factory	'measure

Text Three ['tekst èri:]

This is Fred Russel. He is a teacher. That is his wife. Her name is Judy. She is a writer. These are his children: Mark and Peggy. They are school-children. Mark is in the fourth form and Peggy is in the third form. They are in the garden today. The garden is not large but it is nice.

Is Fred a teacher? — Yes, he is.

Is Judy a doctor? — No, she isn't.

What is she? — She is a writer.

Are Mark and Peggy school — children? — Yes, they are.

Is Mark in the fourth form? — Yes, he is.

Is the garden large? — No, it isn't.

Where are they today? — They are in the garden.

What garden is it? — It is nice.

Matn uchun faol so'zlar

1. children ['tʃɪldrən] — bolalar
2. a writer ['raɪtə] — yozuvchi
3. a teacher ['ti:tʃə] — o'qituvchi
4. the fourth form [fɔ:θ fɔ:m] — 4-sinf
5. the third form [θə:d] — 3-sinf
6. school-children ['sku:l tʃɪldrən] — o'quvchilar
7. three [θri:] — uch
8. a wife [waɪf] — rafiqa
9. a garden ['gɑ:dən] — bog'
11. large [la:dʒ] — katta
10. today [tə'deɪ] — bugun
12. nice [naɪs] — go'zal

Atoqli otlarning o'qilishi

1. Fred Russel	[ˈrʌsl]	Fred Rassel
2. Judy	[ˈdʒu:di]	Judi
3. Mark	[mɑ:k]	Mark
4. Peggy	[ˈpegi]	Peggi

GRAMMATIKA

1. **These, those** so'zlari **this, that** ko'rsatish olmoshining ko'pligidir.

This [ðis] — bu these [ði:z] — bular

That [ðæt] — o'sha those [ðouz] — o'shalar

2. **And** bog'lovchi bo'lib, gap bo'laklarini yoki gaplarni teng bog'laydi va o'zbek tiliga «va» deb tarjima qilinadi. U yordamchi so'z bo'lgani uchun gapda urg'u olmaydi va [ənd] deb o'qiladi.

3. **In** predlogi. Predloglar yordamchi so'zlar bo'lib, otdan oldin qo'llaniladi va o'zbek tilidagi kelishik qo'shimchalari va ko'makchilari singari gap bo'laklarini bir-biriga bog'laydi. **In** — *-da* (ichida) deb tarjima qilinadi va shaxs yoki predmetning o'rnini bildiradi.

Misol: The pencils are in the pencil-box.

Qalamlar qalamdondadir.

4. Personal Pronouns. (Kishilik olmoshlari.)

Bosh kelishikdagi kishilik olmoshlari quyidagilar:

Singular (Birlik)

I. I [ai] (men)

II. You [ju:] (sen)

III. He [hi:] (u (mr.))

She [ʃi:] (u (j.r.))

Predmet va joiivorlar uchun:

It [It] (u)

Plural (Ko'plik)

I. We [wi:] (biz)

II. You [ju:] (siz(lar))

III. They [ðei] (ular)

5. **to be** (bo'lmoq) fe'lining **Present Indefinite** (noaniq hozirgi zamon)da tuslanishi.

Noaniq hozirgi zamonda **to be** fe'lining uchta shakli bor: **am, is, are.**

I. Bo'lishli shaklda.

Singular (Birlik)

- I. I am in the room. (Men xonadaman.)
- II. You are in the room. (Sen xonadasan.)
- III. He (she) is in the room. (U xonada (dir).)

Plural (Ko'plik)

- I. We are in the room. (Biz xonadamiz.)
- II. You are in the room. (Siz xonadasiz.)
- III. They are in the room. (Ular xonada (dir)lar.)

II. So'roq gapda *to be* fe'lining tegishli shakli egadan oldin qo'yiladi:

Singular (Birlik)

- I. Am I in the room? — Yes, you are. — No, you are not (aren't).
- II. Are you in the room? — Yes, I am. — No, I am not.
- III. Is he (she) in the room? — Yes, he (she) is. — No, he (she) is not. (isn't).

Plural (Ko'plik)

- I. Are we in the room? — Yes, you are. — No, you are not (aren't).
- II. Are you in the room? — Yes, we are. — No, we are not (aren't).
- III. Are they in the room? — Yes, they are. — No, they are not (aren't).

III. Bolishsiz gapda egadan keyin *to be* fe'lining tegishli shakli va *not* inkor yuklamasi qo'yiladi:

Singular (Birlik)

- I am not in the room. (Men xonada emasman.)
- You are not in the room. (Sen xonada emassan.)
- He (she) is not in the room. (U xonada emas (dir).)

Plural (Ko'plik)

- We are not in the room. (Biz xonada emasmiz.)
- You are not in the room. (Siz xonada emassiz.)
- They are not in the room. (Ular xonada emas (dir)lar.)

Special Questions (Maxsus so'roq gaplar)

Maxsus so'roq gap deb, so'roq so'zlardan boshlanadigan so'roq gaplarga aytiladi. Maxsus so'roq gaplarda so'z tartibi quyidagicha bo'ladi:

1. Ega va eganing aniqlovchisidan boshqa gap bo'laklariga so'roq qo'yilsa, albatta, yordamchi yoki bog'lama fe'l ega oldiga chiqariladi, ya'ni so'roq so'zdan keyin, albatta, yordamchi yoki bog'lama fe'l turadi. Ega va eganing aniqlovchisiga so'roq qo'yilsa, gapdagi so'z tartibi o'zgarmaydi (darak gapdagidek bo'ladi).

1. So'roq so'z	2. Yordamch bog'lama	3. Ega	4. Kesim	5. To'ldiruvchi	6. O'rin holi Payt holi	
What	is	Fred?	—	—		—
Where	are	they	—	—	—	today
What	is	Judy	writing	—		now
Whom	is	Judy	writing	a letter to?		
When	does	Mark	go	—	to school?	
Who	—	is	—	—	in the	
Whose	—		—	—	garden?	—
wife	—		is a teacher?	—		—

Egadan tashqari gap bo'laklariga savol berilsa, toliq javob beriladi. Ega, eganing aniqlovchisiga savol berilsa, qisqa javob beriladi.

Maxsus so'roq gaplar pasayuvchi ohang bilan talaffuz qilinadi:

Misol: What is Fred? (Fred kim (bo'lib ishlaydi?))

'wɒt iz ʃred | | — · s || —

Eslatma: **What** so'zi savolda kasbga nisbatan berilyapti.

Topshiriq:

1. Matnni transkripsiya va tonogramma qiling.
2. Matnni yodlab oling.

MASHQLAR

I mashq. Quyidagi gaplarning so'roq va bo'lishsiz shaklini yozing.

1. Boys are in the street.
2. He is a pupil.
3. The teacher is at the table.
4. She is his friend.
5. Her sister is at home.
6. Schoolchildren are in the garden.
7. Tom is in the classroom.
8. His name is Pete.
9. They are doctors.
10. It is a picture.

II mashq. Quyidagi gaplardagi nuqtalar o'rniga to be fe'lining mos shaklini qo'ying.

1. Billy ... five. 2. This ... Mark. 3. He ... a schoolboy. 4. They ... schoolchildren. 5. The girls... in the garden. 6. The garden ... not large. 7. Tom ... not a pupil. 8. His name ... Fred.

III mashq. Quyidagi gaplarni ingliz tiliga tarjima qiling.

1. Nelli 5 yoshda. U o'quvchi emas. 2. Peggi uchinchi sinfda o'qiydi. 3. Mark to'rtinchi sinfda o'qiydi. 4. O'quvchilar sinfdalar. 5. Ular bog'da emaslar. 6. U (ayol) o'qituvchidir. 7. O'qituvchi — sinfda. 8. Sinf katta emas. 9. Men o'n yoshdaman. 10. Men o'quvchiman.

Text Four ['tekst ,fɔ:]

I have got a wife, two daughters and parents. My wife is Ann. She is a librarian. My daughters are: Mary and Susan. Mary is at school and Susan is at the nursery. They have got many toys.

My parents are retired workers. They have got a garden. Their garden is on the seashore. The air is fresh there. We stay there every summer.

Matn uchun faol so'zlar

a daughter ['dɔ:tə] — qizi
parents ['pɛərənts] — ota-ona
a librarian [laɪb'rɛəriən] — kutubxonachi
at school [ət sku:l] — maktabda
a nursery ['nɜ:səri:] — bog'cha
many ['meni] — ko'p
a toy [tɔɪ] — o'yinchoq
a retired worker [ri'taiəd] — nafaqadagi ishchi
their [ðeə] — ularning
the seashore [ðə 'si:fɔ:] — dengiz qirg'og'i
air [ɛə] — havo
fresh [freʃ] — sof
to stay [steɪ] — turmoq (vaqtincha yashamoq)
every summer ['evri'sʌmə] — har yozda.

To'rtinchi matn uchun tushuntirishlar. Fonetika

1. **aw** va **au** digraflari [ɔ:] tovushini ifodalaydi.

Misol: paw [pɔ:] — panja
lawn [lɔ:n] — o'tloq
pause [pɔ:z] — to'xtam (pauza)
applause [əp'ɔ:z] — qarsaklar

Bu qoidadan mustasno so'zlar:

Aunt [ɑ:nt] — xola, amma to laugh [lɑ:f] — kulmoq

2. **air** va **eir** harf birikmalari [ɛə] tovushini ifodalaydi.

Misol: hair [hɛə] — soch their [ðɛə] — ularning

3. a) **wh** undosh harflar birikmasidan keyin **o** harfi kelsa, **w** harfi o'qilmaydi.

Misol: who [hu:] — kim whose [hu:z] — kimning

b) **wh** harfidan keyin **o** dan tashqari unli harf kelsa, **h** harfi o'qilmaydi.

Misol: what [wɒt] — nima
when [wen] — qachon
which [witʃ] — qaysi, nechanchi
why [wai] — nima uchun, nega

GRAMMATIKA

Possessive Pronouns (Egalik olmoshlari)

Singular (Hirlik)	Plural (Ko'plik)
I. My [maɪ] (mening)	I. Our [aʊə] (bizning)
II. Your [jɔ:] (sening)	II. Your (siz(lar)ning)
III. His [hɪz] (uning (m.r.)) Her [hɜ:] (uning (j.r.)) Jonivor va predmet- lar uchun: Its [ɪts] (uning)	III. Their [ðɛə] (ularning)

Egalik olmoshlari gapda doimo aniqlovchi vazifasida keladi.

Misol: This is my book.

***To have got fe'l birikmasining
Present Indefniteda tuslanishi***

Singular

- I. I have got a book. (Menda kitob bor.)
- II. You have got a book. (Senda kitob bor.)
- III. He/She has got a book. (Unda kitob bor.)

Plural

- I. We have got books. (Bizda kitoblar bor.)
- II. You have got books. (Sizda kitoblar bor.)
- III. They have got books. (Ularda kitoblar bor.)

Bolishsiz shaklini yasash uchun **not** inkor yuklamasi **have** fe'lidan keyin qo'yiladi.

Singular

- I. I have not got a book. (Menda kitob yo'q.)
- II. You have not got a book. (Senda kitob yo'q.)
- III. He/She has not got a book. (Unda kitob yo'q.)

Plural

- I. We have not got books. (Bizda kitoblar yo'q.)
- II. You have not got books. (Sizda kitoblar yo'q.)
- III. They have not got books. (Ularda kitoblar yo'q.)

Eslatma: have not got — haven't got, has not got — hasn't got.

Bu fe'l birikmasining so'roq shaklini yasash uchun **have** qismi ega oldiga chiqarib qo'yiladi va shu fe'l bilan javob beriladi:

Singular

- I. Have I got a book? — Yes, you have. — No, you have not.
- II. Have you got a book? — Yes, I have. — No, I have not.
- III. Has he/she got a book? — Yes, he/she has. — No, he/she has not.

Plural

- I. Have we got books? — Yes, you have. — No, you have not.
- II. Have you got books? — Yes, we have. — No, we have not.
- III. Have they got books? — Yes, they have. — No, they have not.

The Number of the Noun (Otlarda ko'plik)

O'zbek tilida otlarda ko'plik qo'shimchasi **-lar** hisoblanadi. Ingliz tilida esa **-s** (yoki **-es**) hisoblanadi.

Misol: a pen—ruchka
pens—ruchkalar

-s ko'plik qo'shimchasining o'qilishi:

1. **-s** qo'shimchasi oxiri jarangsiz undosh bilan tugallangan otlarga qo'shilganda, [s] bo'lib o'qiladi.

Misol: a cat — cats [kæts] — mushuk — mushuklar
a desk — desks [desks] — parta — partalar

2. **-s** qo'shimchasi unli yoki jarangli undosh bilan tugallangan otlarda [z] o'qiladi.

Misol: a boy — boys [bɔiz] — bola — bolalar
a spoon — spoons [spu:nz] — qoshiq — qoshiqlar

3. Oxirida **s, ss, x, ch, [ʃ]**ni beruvchi **sh** harf birikmasidan keyin va [dʒ]ni beruvchi harflardan keyin ko'plik qo'shimchasi **-es** bo'lib qo'shiladi va [iz] o'qiladi.

Misol:

rose [rouz] — atirgul	roses ['rouziz] — atirgullar
box [bɒks] — quticha	boxes ['bɒksiz] — qutichalar
bench [bentʃ] — skameyka	benches ['bentʃiz] — skameykalar
boss [bɒs] — boshliq	bosses ['bɒsiz] — boshliqlar
page [peidʒ] — sahifa	pages ['peidʒiz] — sahifalar

4. Quyidagi otlarning ko'pligi o'zagi o'zgarishi orqali yasaladi.

a man [mæn] — kishi	men [men] — erkak kishilar
a woman ['wumən] — ayol	women ['wimin] — ayollar
foot- [fut] — oyoq	feet [fi:t] — oyoqlar
tooth [tu:θ] — tish	teeth [ti:θ] — tishlar
a goose [gu:s] — g'oz	geese [gi:s] — g'ozlar
a deer [diə] — kiyik	deer [diə] — kiyiklar
a sheep [ʃi:p] — qo'y	sheep [ʃi:p] — qo'ylar
a fish [fiʃ] — baliq	fish [fiʃ] — baliqlar

Topshiriqlar:

I. Yuqoridagi matnmi transkripsiya va tonogramma qiling, uni yod oling.

II. Quyidagi savollarga javob bering:

1. Has he got a wife?
2. How many daughters has he got?
3. Has he got two sons?
4. What is his wife?
5. Is Mary at school?
6. Where is Susan?
7. What have the children got?
8. Are his parents retired workers?
9. Have they got a garden?
10. Where is their garden?

MASHQLAR

I mashq. *au* va *aw* digraflarining o'qilishini aniqlab, transkripsiya qiling.

pause	paw
cause	raw
fault	dawn
applause	'trawler
	'Warsaw

II mashq. *r* harfidan oldin kelgan digraflarning o'qilishini mashq qiling.

[ɛə] №19	[iə] № 18	[iə] №18	[ɜ:] №11	[iə] №18
Hair Their	Beer Peer Cheer	Ear Hear Rear	Earn Learn Pearl	Pier Pierce Fierce
[ɔ:] №7 Oar Roar Board	[uə] № 21 Poor Boor Moor	[auə] Our Sour Flour	[auə] Dowry Power Flower	

Eslatma: Agar unli digrafdan keyin *r* harfi kelsa, uning o'qilishi o'zgarib ketadi.

Misol: Main — hair soon — poor
[mein] [hæ] [su:n] [puə]

III mashq. Ko'plik s qo'shimchasining o'qilishiga e'tibor berib, transkripsiya qiling.

cats	beds	buses
notes	names	roses
books	days	benches
roofs	files	dishes
clocks	babies	cages

IV mashq. Nuqtalar o'rniga *to have got* birikmasining mos shaklini qo'ying.

1. Ann... a family. 2. She... two children. 3. Her children... a lot of toys. 4. You... two sisters. 5. My friend... a lot of English books. 6. His parents... a nice garden. 7. Your brother... a car. 8. She... a daughter and a son.

V mashq. Quyidagi gaplarning ho'lishsiz va so'roq shaklini tuzing.

1. Mary has got a lot of children. 2. His brother has got a wife. 3. They have got many pictures. 4. John has got two sons. 5. I have got grandparents. 6. Her parents have got nine grandchildren. 7. He often has got colds, (to have got a cold shamollamoq). 8. My friend has got two brothers.

VI mashq. Quyidagi gaplarni ingliz tiliga tarjima qiling.

1. Bizda ko'p inglizcha kitoblar bor. 2. Uning opasida ikkita qiz bor. 3. O'quvchilarda ko'p darsliklar bor. 4. Ota-onamning yaxshi kvartirasi bor. 5. — Do'stingizning oilasi bormi? — Ha. 6. Akamning oilasi yo'q. 7. — Uning nechta bolasi bor? — 3 ta. 8. Bugun mening bo'sh vaqtim yo'q. 9. Onamning ikkita singlisi bor. 10. O'qituvchimda chiroyli sumka bor.

VII mashq. Nuqtalar o'rniga egalik olmoshlarining mos shaklini qo'ying.

1. I have got a friend.... friend is a pupil. 2. He is a student.... name is Alimov. 3. Ann is a schoolgirl.... marks are good. 4. Children are in the kindergarden.... parents are at work. 5. Please, give me ... English book, Komil. 6. We are teachers,... friends are teachers too. 7. What are ... names? - ... are Dilbar and Malika. 8. They are pensioners.... sons are engineers.

VIII mashq. Quyidagi otlarning ko'plik shaklini yozing.

A bag, a game, a teacher, a bench, a cage, a table, a match, a hut, a lady, a party, a boss, a man, a foot, a tooth, a fish.

The Alphabet (Ingliz alifbosi)

Bosma harf	Yozma harf	O'qilishi	Bosma harf	Yozma harf	O'qilishi
Aa	<i>Aa</i>	[ei]	Nn	<i>Nn</i>	[en]
Bb	<i>Bb</i>	[bi:]	Oo	<i>oo</i>	[ou]
Cc	<i>Cc</i>	[si:]	Pp	<i>Pp</i>	[pi:]
Dd	<i>Dd</i>	[di:]	Qq	<i>Qq</i>	[kju:]
Ee	<i>Ee</i>	[i:]	Rr	<i>Rr</i>	[θ:]
Ff	<i>Ff</i>	[ef]	Ss	<i>Ss</i>	[es]
Gg	<i>Gg</i>	[d:i:l]	Tt	<i>Tt</i>	[ti:]
Hh	<i>Hh</i>	[eit~]	Uu	<i>Uu</i>	[ju:]
Ii	<i>Ii</i>	[ai]	Vv	<i>Vv</i>	[vi:]
Jj	<i>Jj</i>	[d·ei]	Ww	<i>Ww</i>	[dʌblju:]
Kk	<i>Kk</i>	[kei]	Xx	<i>Xx</i>	[eks]
Ll	<i>Ll</i>	[el]	Yy	<i>Yy</i>	[wai]
Mm	<i>Mm</i>	[em]	Zz	<i>Zz</i>	[zed]

ASOSIY QISM

Lesson One (The First Lesson)

Text: Our Flat

Phonetics: O o [u:]; a + th, st, ss, sk, sp [a:]; i+gh, ld, nd - [ai]

Grammar: Combination **there to be**.

Our Flat

Our flat is in a big block of flats. It is on the first floor. There are three rooms in our flat. They are a sitting-room, a bed-room and a dining-room. There is a kitchen, a bathroom and a lavatory in it too.

The sitting-room is light and large. There are two windows in it. There is a table, four chairs, two armchairs, a sofa, a TV set there. There is a piano on the right. There is a bookcase on the left. There is a carpet on the floor. There is a standard lamp in the corner of the room. We watch TV and have a rest in the sitting-room.

There is one window in the bed-room. There are two beds, a wardrobe, a mirror and a dressing-table there. There is a clock on the wall. There are curtains on the window. There is a rug on the floor. Our parents sleep in that room.

The dining-room is not large. There is a table, six chairs and a cupboard in the dining-room. There are different dishes in the cupboard. We have breakfast, lunch, tea and dinner in the dining-room.

In the kitchen there is a refrigerator, a gas-fire, a water-basin, hot and cold water taps. There are two stools and a cabinet in it. My mother cooks meals there.

There is a bath, a shower, a sink and a towel-rack with towels in the bathroom. We have a bath or a shower or wash our hands and faces in the bathroom. Our flat is comfortable.

Answer the questions:

Where is your flat?

How many rooms are there in your flat?

What kind of room is the sitting-room?
 Where is the bookcase?
 How many beds are there in the bedroom?
 Is there a piano on the right?
 What is there on the wall?
 Is there a carpet in the bed-room?
 What is there in the dining-room?
 Is your flat comfortable?

The active words

a flat [flæt] — kvartira
 a block of flats [blɒk] — ko'p kvartirali uy
 a sitting-room ['sitɪŋrʊm] — mehmonxonona
 a dining-room [dainɪŋ rʊm] — ovqatlanish xonasi, yemakxonona
 a bedroom ['bedrʊm] — yotoqxonona
 a kitchen ['kɪtʃn] — oshxonona
 a bath-room [bɑ:θrʊm] — yuvinish xonasi (vannaxonona)
 a lavatory ['lævətɪrɪ] — hojatxonona (tualet)
 a light [laɪt] — yorug'; chiroq
 a window ['wɪndəʊ] — deraza
 a door [dɔ:] — eshik
 a table [teɪbl] — stol
 a chair [tʃeə] — stul
 an arm-chair ['θ:mtʃeə] — kreslo
 a sofa [sɒfə] — divan
 a TV-set [ti:'v:seɪt] — televizor
 a book case ['bʊkkeɪs] — kitob javoni
 on the right [raɪt] — o'ng tomonda
 on the left [left] — chap tomonda
 a carpet [kə:'pɪt] — gilam
 syn. a rug [rʌg] — gillam; poyandoz
 a standard-lamp ['stændəd læmp] — lampa, torsher
 in the corner ['kɔ:nə] — burchakda
 a bed [bed] — karavot
 a wardrobe ['wɔ:droub] — kiyim javoni, garderoob
 a mirror ['mɪrə] — oyna
 a dressing table ['dresɪŋteɪbl] — pardoz stoll
 a clock [klɒk] — soat
 on the wall [wɔ:l] — devorda

a curtain [kə:'tɪn] — parda
on the floor [flɔ:] — polda (ustida), yerda
a cupboard [kʌbəd] — bufet shkafi
different ['dɪfrənt] — turli
a refrigerator ['nɪfrɪdʒəreɪtə] — muzlatkich
a water-basin [wɔ:tə beɪsn] — idish-tovoq yuvgich (rakovina)
hot and cold water taps [hɒt ənd kəʊld wɔ:tə tæps] — Issiq va sovuq
suv jo'mraklari

a stool [stu:l] — taburetka
a cabinet ['kæbɪnɪt] — shkafcha
a bath [bɑ:θ] — vanna
a shower [ʃaʊə] — dush
a sink [sɪŋk] — bet yuvgich (umivalnik)
a towel rack ['tauəlɹæk] — sochiq ilgich
comfortable ['kɒmfətəbəl] — qulay
a gas-fire ['gæsfɑɪə] — gaz plitasi

COMMENTARIES

I. O o harfi ba'zi so'zlarda ochiq bo'g'inda 9-raqamli [u:] unli tovushini ifodalaydi.

Misol: two [tu:] — ikki
do [du:] — bajarmoq
to [tu:] — yuklana
move [mu:v] — harakatlanmoq
lose [lu:z] — yo'qotmoq

II. A a harfi ss, st, sk, sp, th qo'sh undosh harflar oldida kelganda, 5-raqamli [a:] unli tovushini ifodalaydi.

Misol: class [kla:s] — mashg'ulot
fast [fa:st] — tez
grasp [gra:sp] — qisish
path [pa:θ] — yo'lka
task [ta:sk] — vazifa

Quyidagi so'zlar bu qoidalardan mustasno:

ass [æ:s] — eshak
lass [læ:s] — qiz bola
mass [mæ:s] — omma, ko'p

III. I i harfi gh, nd, ld qo'sh undosh harflar oldida kelganda 15-raqamli [ai] unli tovushini ifodalaydi, gh esa o'qilmaydi.

Misol: light [lait] — yorug'
 right [rait] — to'g'ri
 kind [kaind] — ochiqko'ngil
 find [faind] — topmoq
 child [t'fild] — bola
 mild [maild] — yumshoq
 (to build [bild] — qurmoq fe'li bu qoidadan mustasno)

IV. There is, there are birikmasi.

Biror predmet (predmetlar) yoki shaxs (shaxslar)ning aniq bir joyda bor yoki yo'qligini ifodalaydigan gap **there is, there are** birikmasi bilan boshlanadi. Bunday gaplarda so'z tartibi quyidagicha bo'ladi.

Agar mustaqil ega uyushib kelsa, kesim eng birinchi kelgan ot bilan sonda moslashadi.

1	2	3	4	
Formal ega	Sodda fe'l kesim	Mustaqil ega	O'rin holi	Payt holi
There	is	a book	on the table	
There	are	books	on the table	
There	was	a boy	in that room	yesterday
There	were	boys	there	yesterday

Misol: There is a book and two pens on the table.
 There are two pens and a book on the table.

So'roq gap yasash uchun **is** yoki **are** ega oldiga chiqarib qo'yiladi va shular bilan javob beriladi.

Misol:

- Is there a book and two pens on the table?
- Yes, there is
- No, there is not.
- Are there two pens and a book on the table?
- Yes, there are
- No, there are not.

Bu birikmali gapning bo'lishsiz shaklini yasash uchun shu birikmadan keyin **no** inkor olmoshi qo'yiladi.

Misol: There is no book and two pens on the table.

Agar gapdagi ot oldida **some, any, many, much, few, little**

kabl olmoshlar yoki sanoq son bo'lsa, u holda birikmadan keyin **not** inkor yuklamasi qo'yiladi.

Misol: There is not any book on the table.

There are not two pens on the table.


Bolishli va bo'lishsiz gapda **there** formal egaga urg'u tushmaydi va kuchsiz o'qiladi.

Misol: There is. [ðəriz] There are. [ðərθ:]

Is there? ['iz ðəə] Are there? ['θ:ðəə]

Bunday birikmali gaplarda o'rin holi ham urg'u olmaydi. Shuning uchun mustaqil ega oxirgi urg'uli bo'g'in hisoblanadi, ovoz pasayadi yoki ko'tariladi.

1. There is a book on the table.



[ðər iz ə ,buk ɔn ðə teɪbl]

2. Is there a book on the table?




['iz ðəə ə buk ɔn ðə teɪbl]

3. There are two books on the table.



[ðər ə 'tuː.buks ɔn ðə teɪbl]

4. Are there two books on the table?



['θ: ðəə 'tuː.buks ɔn ðə teɪbl]

EXERCISES (MASHQLAR)

I. Quyidagi so'zlarni silliq talaffuz qiling.

block of flats

on the right in the corner (of)

on the floor

on the left in the middle (of)

II. Quyidagi so'zlarni transkripsiya qiling.

light

Britain

our

sink

right

curtain

hour

rink

night

certain

power

bank

III. Qavs ichidagi so'zlardan foydalanib, quyidagi namunalar asosida gap tuzing.

- a) *namuna*: 1. There is a piano in the sitting-room.
(a sofa, a TV-set, an armchair, a book-case).
2. There are books on the table.
(notebooks, pens, pencils, flowers).
- b) *namuna*: 1. There is no butter-dish on the table.
(bread-plate, salt-celler, tea-pot, sugar-bowl).
2. There are no plates on the dinner-table, (forks, knives, spoons, cups).
- c) *namuna*: 1. Is there an armchair in your sitting room?
Yes, there is.
No, there is not.
(a book-case, a piano, a radio-set, a clock).

IV. Quyidagi gaplarni so'roq va bo'lishsiz gaplarga aylantiring.

- There is a pen in my bag.
There are mistakes in your test.
There is a cupboard in the dining room.
There are pencils in the pencil-case.
There are buses in the street.
There is a map on the wall.

V. Tagiga chizilgan gap bolaklariga maxsus so'roqlar qo'ying.

- There is a nice park near the school.
There are forty pupils in our room.
There are fifty books in my library.
There is a round table in the sitting room.

VI. Quyidagi birikmalardan foydalanib, gaplar tuzing.

a block of flats, a sitting-room, a cupboard, on the floor, in the corner of the room, on the wall, on the left, on the right, a water-basin, a shower.

VII. Quyidagi gaplarni ingliz tiliga tarjima qiling.

1. Kitob stol ustida emas, u — kitob javonida. 2. Stol ustida kitob yo'q. 3. Muzlatkich — oshxonada. 4. Oshxonada muzlatkich bor. 5. Maktab Navoiy ko'chasida joylashgan. 6. Navoiy ko'chasida maktab bor. 7. Qizil gilam pol ustida(dir). 8. Pol ustida qizil gilam bor. 9. Dilbarda beshta inglizcha kitob bor. 10. Ana u studentda kompyuter bor.

VIII. Matndagi faol soʻzlardan foydalanib, oʻz xonangizni yoki kvartirangizni tasvirlab bering (ingliz tilida).

IX. Quyidagi dialogni oʻqing va yod oling.

Dialogue

Alimov: It's nice to meet you Mrs. Bell. You've got a very good house.

Mrs. Bell: Thank you. And what about you, Mr. Alimov? Have you got a house or a flat?

Alimov: We've got a three-roomed flat in Tashkent with a large kitchen and a bathroom.

Mrs. Bell: Is Tashkent a nice city?

Alimov: Yes, certainly.

X. Quyidagi maqolni oʻqing va yodda tuting.

There is no place like home.

East or West home is best.

LESSON TWO (THE SECOND LESSON)

Text: Our Family.

Dialogue.

Grammar: I. Combination To Have Got.

II. Indefinite Pronouns **some, any.**

III. The Cases of Nouns.

IV. The Alternative Question.

V. The parts of a Sentence.

Our family

Our family is large. I have got a father, a mother, a brother and a sister. My father's name is Olim. He is forty-five. He is an engineer. My mother's name is Mohira. She is forty-one. She is a doctor. My younger brother's name is Odil. He is sixteen. He is a schoolboy. He is in the ninth form.

My younger sister's name is Malika. She is 13. She is a school-girl. She is in the seventh form.

My name is Hakim. I am nineteen. I am a second-year student of the Tashkent Islamic University.

I have got a grandfather and a grandmother too. They are old. They are pensioners. They live in the country. They love their children and grandchildren.

My father has got a brother and a sister.

My uncle's name is Karim. He is a businessman.

My aunt's name is Saida. She is a teacher. But my mother hasn't got any brothers and sisters.

Answer the questions:

1. Is your family large or little?
2. What is your sister's name?
3. What is your mother?
4. How old is your father?
5. Are you a pupil or a student?
6. Have you got any sisters?

7. Is your uncle a businessman or a doctor?
8. Has your aunt got any children?
9. Are your grandparents pensioners?
10. How old are you?

The new words and expressions:

a family ['fæmɪli] — oila
 a father ['fɑ:ðə] — ota
 a mother [mʌðə] — ona
 an elder brother [ən'eldə' brʌðə] — aka
 a younger brother ['jʌŋgə] — uka
 an elder sister [sɪstə] — opa
 a younger sister ['jʌŋgə sɪstə] — singil
 an uncle ['ʌŋkl] — amaki yoki tog'a
 an aunt [θ:nt] — amma yoki xola
 a grandfather ['græn fa:ðə] — buva (bobo)
 a grandmother ['græn mʌðə] — buvi (momo)
 a child [tʃaɪld] - bola, children [tʃɪldrən] — bolalar
 a grandchildren ['græn tʃɪldrən] — nabiralar
 a school-boy ['sku:l bɔɪ] — o'quvchi bola
 a school-girl [sku:l gɜ:l] — o'quvchi qiz

COMMENTARIES

I. n harfi k, c harflari oldida kelganda, [ŋ] undosh sonor tovushlarni ifodalaydi.

Misol: ink [ɪŋk] — siyoh; uncle ['ʌŋkl] — amaki yoki tog'a

II. Some, any gumon olmoshlari.

Predmetlarning aniq bo'lmagan oz sonli ekanligini ifodalash uchun **some, any** gumon olmoshlari ishlatiladi. Ular, odatda, aniqlovchi vazifasini bajarib, ot oldida keladi va artikl vazifasini o'taydi.

1. **Some** bo'lishli gaplarda ko'plikdagi sanaladigan yoki birlikdagi sanalmaydigan ot oldida keladi va «bir necha», «biroz» deb tarjima qilinadi.

Misol: I have got some English books.

(Menda bir necha inglizcha kitob bor.)

He has got some money.

(Unda biroz pul bor.)

2. **Some** olmoshi ot oldida kelganda urg'u tushmaydi va reduksiyalanadi, yolg'iz kelganda esa urg'u olmasa ham, to'liq shaklda talaffuz qilinadi.

Misol: Give me some chalk.

Have you got any books? — Yes, I have got some.

Lekin **some of them**, **some of us** kabi so'z birikmalarida esa **some** urg'u oladi va to'liq talaffuz etiladi: Some of them know German.

3. **Any** olmoshi so'roq va bolishsiz gaplarda qo'llanadi va «qandaydir», «hech qanday» ma'nolarini anglatadi, gapda aniqllovchi vazifasini bajaradi.

Misol: Have you got any books? — Yes, I have some. I haven't got any books.

4. **Any** olmoshi ko'pincha bo'lishli gapda kelganda «har qanaqa» ma'nosini beradi.

Misol: You can take any book you like. Sen istagan kitobingni olishing mumkin.

5. **Any** so'zi bilan tuzilgan so'roq gaplarga **some** so'zi bilan javob beriladi.

Misol: Have you got any chalk? — Yes, I have some.

Otlarda kelishik

O'zbek tilida otlarda oltita kelishik bor: bosh, qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishiklari. Ingliz tilida esa otlarda faqat ikkita kelishik bor:

1. **The Common Case** (Umumiy kelishik).

2. **The Possessive Case** (Egalik kelishigi).

a) **The Possessive Case** o'zbek tilidagi qaratqich kelishigiga mos keladi. U ot o'zagiga birlikda apostrofli **-s ('s)** qo'shimchasi qo'shish bilan yasaladi:

Misol: My sister's flat — opamning xonadoni

Agar ot ko'plikda bo'lib, **-s (-lar)** qo'shimchasini olgan bo'lsa, u holda **-s** qo'shimchasidan keyin apostrof (') ning o'zi qo'yiladi.

Misol: the boy's ball — bolaning koptogi

the boys' balls — bolalarning koptoklari

Ko'pligi mustasno holda yasaladigan otlar bilan egalik kelishigi yashash uchun ular o'zagiga xuddi birlikdagi kabi ('s) qo'shiladi.

Misol: the man's book — kishining kitobi
the men's books — kishilarning kitoblari
the woman's dress — ayolning ko'ylagi
the women's dresses — ayollarning ko'ylagi
the child's toy — bolaning o'yinchog'i
the children's toys — bolalarning o'yinchoqlari

The Possessive Case da jonli predmetlarni ifodalovchi otlargina ishlatiladi. Bu kelishikdagi otlar gapda doimo aniqlovchi vazifasini bajaradi va «**Whose?**» savoliga javob bo'ladi.

Jonsiz predmetlarni ifodalovchi otlarning qaratqich kelishigi ma'nosini berishi uchun ot o'zagi oldiga **of** predlogi qo'yiladi:

Misol: the window of the room — xonaning derazasi
the corner of the room — xonaning burchagi

b) **The Common Case** dagi otlar gapdagi o'rniga qarab yoki predlog bilan kelib, o'zbek tilidagi qolgan kelishiklar ma'nolarini ifodalashi mumkin:

My sister is in the room.

(«**singlim**» — ega)

He sees my sister at the bus-stop.

(«**singlimni**» — vositasiz to'ldiruvchi)

He gives my sister a book.

(«**singlimga**» — vositali to'ldiruvchi)

He takes a book from my sister.

(«**singlimdan**» — predlogli to'ldiruvchi)

This is my sister.

(«**singlimdir**» — qo'shma ot kesimning ot qismi).

I. Tanlov so'roq gap

Tanlov so'roq gap 2 qismdan iborat bo'ladi:

1. Umumiy so'roq gap.

2. **Or** bog'lovchisidan keyin keladigan tanlanadigan gap bo'lagi.


Misol: Is he a student or a pupil? — He is a pupil.

Tanlov so'roq gapga to'liq javob beriladi.

1. Agar tanlov so'roq gap egaga beriladigan bo'lsa, so'roq gap boshqacharoq tuziladi va javob qisqa bo'ladi.

Misol: Is Ben in Tashkent or is Nick? — Nick is.

2. Tanlov so'roq gapning I qismi ko'tariluvchi ohang bilan, II qismi esa pasayuvchi ohang bilan talaffuz qilinadi.

Misol: Is this pencil red or black? 
'iz 'ðis'pensl ,red llɔ: ,blækll

II. Gap bo'laklari

Ingliz tilida ham gap bo'laklari o'zbek tilidagi kabi ikkiga bo'linadi:

1. Bosh bo'laklar.

2. Ikkinchi darajali bo'laklar.

1. Bosh bo'laklar ega va kesimdan iborat. Ega **kim** yoki **nima** so'rog'iga javob bo'ladi. Kesim esa **kimdir, nimadir, nima qiladi, nima qilyapti, nima qildi** kabi so'roqlarga javob bo'ladi:

Misol: Our family is large.

She has got a sister.

2. Ikkinchi darajali bo'laklar **aniqlovchi, to'ldiruvchi** va **holdan** iborat.

Aniqlovchi **kimning, nimaning, qanday, qaysi, nechanchi** kabi so'roqlarga javob bo'ladi:

Misol: I have got a large room.

To'ldiruvchi **vositali, vositasiz** va **predlogli to'ldiruvchiga** bo'linadi. Vositasiz to'ldiruvchi **kimni, nimani** so'rog'iga javob bo'ladi. Vositali va predlogli to'ldiruvchilar **kimga, nimaga, kimdan, nimadan, kim haqida, nima haqida** kabi so'rog'iga javob bo'ladi.

Hol **payt, o'rin, ravish, maqsad** va **sabab hollaridan** iborat. Payt holi **qachon, qancha vaqt** kabi so'roqlarga; o'rin holi **qayerda, qayerga** kabi so'roqlarga; ravish holi **qanday, qay tarzda**; maqsad holi **nima maqsadda**; sabab holi **nima uchun** kabi so'roqlarga javob bo'ladilar.

Misol: I have got a sister.

ega kesim vositasiz to'ldiruvchi

They live in the country.

o'rin holi

EXERCISES

I. Quyidagi *Possessive Caseda* kelgan otlarni transkripsiya qiling va to'g'ri talaffuz bilan o'qing.

[s]	[z]	[iz]
Bet's	father's	Charles'
Smith's	girl's	niece's
Nick's	Jane's	Holmes'
Aunt's	uncle's	horse's
Student's	boy's	boss'

II. Quyidagi gaplarni o'qing, tagiga chizilgan so'zlarga ahamiyat bering.

The boy has got a toy.

Has the boy got a toy? — Yes, he has.

Has she got any sisters? — Yes, she's got some.

She hasn't got any brothers.

III. Quyidagi gaplarni bolishsiz va so'roq shakllarga qo'ying.

1. Mary has got a family.
2. Jane has got a lot of friends.
3. They have got some English books.
4. He has got two sons and a daughter.
5. Bob and Nick have got skates.
6. I have got some work now.
7. He has got a question.
8. The boy has got a ball.

IV. Nuqtalar o'rniga *some* yoki *any* gumon olmoshini qo'ying.

1. I have got Arabic books.
2. Have you got English books?
3. She has got time to do this work.
4. Give me chalk, please.
5. Has she got friends here?
6. The student hasn't got questions.
7. Please take book you like.
8. of these articles are interesting.
9. There are not children in the garden.
10. There is ink in my pen.

V. Quyidagi tanlov so'roq gaplarga javob bering.

1. Is your aunt young or old?
2. Are children in the garden or in the street?
3. Have you got an elder brother or a younger brother?
4. Has he got a niece or a nephew?

5. Is your mother a teacher or an engineer?
6. Are the pupils in the classroom or in the sports ground?
7. Is there a TV-set or a radio-set on the little table?
8. Are there two or four armchairs in the sitting-room?
9. Is your father's car new or old?
10. Are his sister's children at school or at home?

VI. Quyidagi so'z birikmalari bilan gaplar tuzing.

1. The pupil's room. 2. The pupils' room. 3. The man's brother.
4. The men's brother. 5. The child's bed. 6. The children's beds. 7. The middle of the room. 8. The corner of the room. 9. The leaves of the tree. 10. The colour of the table.

VII. Tagiga chizilgan otni *Possessive Case*ga qo'yib, gaplarni birlashtiring.

1. Do'stimda mashina bor. U qulay. 2. Dilshodda savol bor. U qiyin. 3. Onamning singlisi bor. U — ingliz tili o'qituvchisi. 4. Akamda do'stlar ko'p. Ular — talaba. 5. Bular — talabalarning daftarlari. Ular parta ustida. 6. Do'stimda bog' bor. Unda mevali daraxtlar ko'p. 7. O'qituvchimda qora sumka bor. U stul ustida. 8. Dilbarda qo'g'irchoqlar bor. Ular chiroyli.

VIII. Quyidagi gaplarni ingliz tiliga tarjima qiling.

1. Anyaning sumkasida bir necha daftar bor. 2. O'qituvchida ozgina bo'r bor. 3. Sizning do'stlaringiz bormi? 4. Akangizning do'stlari bormi? 5. Dadangizning haydovchisi yoshmi? 6. Opamning mashinasi yangi. 7. Bog'da bir necha mevali daraxtlar bor. 8. Bu ko'chada hech qanday gulxona yo'q. 9. Parta ustida bir necha ruchka va qalam bor. 10. Mehmonxonada qandaydir kreslo bormi? 11. Jeynning xonasi qulay. 12. Nikning buvasi va buvisi nafaqadadirlar.

IX. Quyidagi dialogni yod oling.

Dialogue

Jack: She is pretty. Who is she?

Fred: That's my daughter Peggy.

Jack: Is this your son?

Fred: Yes. That's Mark. He is five.

Jack: Five! Oh, he's a big boy.

Fred: And those are my cats, Harold and Maude.

X. Maqolni o'qing va yodda tuting.

First think, then speak.

LESSON THREE (THE THIRD LESSON).

Text: My Working Day.

Dialogue.

Phonetics: ea [e], «w + a», «w + o»

Grammar: I. Time prepositions.

II. Present Indefinite.

III. Cardinal and Ordinal Numerals.

My working day

I usually get up at 7 o'clock. I open the window, make my bed and do my morning exercises. I have a wash and dress. At half past seven I have breakfast. At 8 o'clock I go to the University. I go by bus 28. Our first lesson begins at 8.30.

We usually have four lessons. We study History, Arabic, Uzbek literature, English and other subjects. Our classes are over at 14.50. I have lunch at the University canteen. I come home at four o'clock.

I have a little rest. Then I do my homework. At seven o'clock I have dinner. Then I watch TV. At 8 I learn the new words and read texts.

At 11 o'clock I go to bed.

Answer the questions:

1. When do you usually get up?
2. What do you do in the morning?
3. How do you go to the University?
4. When does your first lesson begin?
5. How many lessons do you have every day?
6. What subjects do you study?
7. Where do you have dinner?
8. Do you help your mother about the house?
9. When do you do your homework?
10. What do you learn in the evening?

The new words and expressions:

- to get up [get'ʌp] — o'rindan turmoq
to make the bed [meik] — o'rinni tuzatib (yig'ishtirib) qo'ymoq
to do morning exercises ['eksəsaiziz] — ertalabki badantariya mashqlarini bajarmoq
to have a wash [wɔʃ] — yuvinmoq
to dress [dres] — kiyinmoq
to have breakfast ['brekfəst] — nonushta qilmoq
to have dinner ['dinə] — tushlik qilmoq
to have supper ['s'ʌpə] — kechki ovqatni yemoq
a class [klɜ:s] — mashg'ulot, dars
to study ['stʌdi] — o'rganmoq, o'qimoq
history ['histəri] — tarix
arabic ['ærəbik] — arab tili
literature ['litrɪtʃə] — adabiyot
to be over ['ouvə] — tugatmoq
to have a rest [rest] — dam olmoq
then [ðen] — so'ngra
to learn [lɜ:n] — yodlamoq, o'rganmoq
to go to bed [tə'goutə'bed] — uxlashga yotmoq
to work hard (at) [hɜ:d] — qattiq ishlamoq
to do well in English — ingliz tilini yaxshi o'qimoq
to be in time for the lesson — darsga vaqtida kelmoq
to revise [ri'vaiz] — takrorlamoq (esga tushirmoq)

COMMENTARIES

I. ea digrafi ba'zi so'zlarda [i:] tovushi o'rniga [e] tovushi bilan ifodalanadi:

- breath [breθ] — nafas
bread [bred] — non
breadth [bredθ] — kenglik
breakfast ['brekfəst] — nonushta
dead [ded] — o'lgan, jonsiz
deaf [def] — kar-soqov
death [deθ] — o'lim
ready ['redi] — tayyor
health [helθ] — sog'liq
wealth [welθ] — boylik

head [hed] — bosh
heavy [hevi] — og'ir; qattiq

Quyidagi so'zlarda esa [i:] tovushi o'rniga [ei] tovushini ifodalaydi:
break [breik] — sindirmoq
great [greit] — buyuk, ulug'
steak [steik] — go'sht; muskul

II. 1) a unli harfi **w** undoshi yoki **qu** harflar birikmasidan keyin I tur yopiq bo'g'inda [æ] unli o'rniga [ɔ] unli tovushini, III tur yopiq bo'g'inda esa [a:] unli tovushi o'rniga [ɔ:] tovushini ifodalaydi.

I tur bo'g'in	III tur bo'g'in
Want [wɔnt]	War [wɔ:]
Quant [kwɔnt]	Warm [wɔ:m]
Quarrel [kwɔrəl]	Quarter ['kwɔ:tə]

2) o harfi **w** yoki **qu** birikmasidan keyin I tur yopiq bo'g'inda [ɔ] unli tovushi o'rniga [ʌ] tovushini, III turbo'g'inda [ɔ:] o'rniga [ə:] tovushini ifodalaydi.

I tur bo'g'in	III tur bo'g'in
Won [wʌn]	Word [wɜ:d]
Wonder [wʌndə]	Work [wɜ:k]
Worry [wʌri]	Worth [wɜ:θ]

III. Vaqtni bildiruvchi predloglar quyidagilar: *at, from... to... .*

Bular son oldida kelib, paytni bildiradi.

Misol: At 8 o'clock — soat 8 da

From 9 to 5 — soat 9 dan 5gacha

IV. Sanoq sonlar.

1) Ingliz tilidagi tub sonlar quyidagilar:

1 — one 4 — four 7 — seven 10 — ten

2 — two 5 — five 8 — eight 11 — eleven

3 — three 6 — six 9 — nine 12 — twelve

2) 13 dan 19 gacha bo'lgan sonlar yasash uchun tub sonlar oxiriga **-teen** qo'shinchasi qo'shiladi. Misol:

13 — thirteen 14 — fourteen 15 — fifteen va h. k.

3) O'nlik sonlar tub son oxiriga **-ty** qo'shimchasi qo'shish bilan yasaladi.

Misol: 20 — twenty 50 — fifty 80 — eighty
30 — thirty 60 — sixty 90 — ninethy
40 — forty 70 — seventy 100 — a hundred

4) O'nlik va birlik sonlar orasiga chiziqcha qo'yiladi.

Misol: 25 — twenty-five 76 — seventy-six

V. Tartib sonlar.

Barcha tartib sonlar sanoq sonlarning oxiriga **-th** qo'shimchasi-ni qo'shish orqali yasaladi. **Birinchi, ikkinchi, uchinchi** kabi tartib sonlari esa boshqa o'zakdan yasaladi.

Misol: 1 — one — the first
2 — two — the second
3 — three — the third
4 — four — the fourth
12 — twelve — the twelfth
13 — thirteen — the thirteenth va h. k.

Eslatma: Tartib sonlar oldida **-the** aniq artikli ishlatiladi.

Time

What time is it? — Soat necha (bo'ldi)?

What is the time? — Soat necha (bo'ldi)?

How long... — Qancha vaqt...

It is 9 o'clock. — Soat 9.

At 9 o'clock. — Soat 9 da.

It is 5 minutes past 9. — Soat 9 dan 5 daqiqa o'tdi.

At 5 minutes past 9. — Soat 9 dan 5 daqiqa o'tganda...

It is half past 9. — Soat 9 yarim.

At half past 9. — Soat 9 yarimda...

It is 15 (fifteen) minutes to 10. — Soat 15 daqiqa kam 10.

It is a quarter to 10. — Soat chorak kam 10.

At 15 minutes to ten. — Soat 15 daqiqa kam 10 da...

It is 5 minutes to 10. — Soat 5 daqiqa kam 10.

At 5 minutes to 10... — Soat 5 daqiqa kam 10 da...

Yangi soʻzlar:

- past [pa:st] — oʻtmoq
a half [ha:f] — yarim (30 daqiqa)
a quarter ['kwɔ:tə] — chorak (15 daqiqa)
a minute [minit] — minut, daqiqa

The Present Indefinite tense (Noaniq hozirgi zamon)

I. *Present Indefinite* zamoni odat bolib qolgan yoki doimo qaytarilib turadigan ish-harakatlarni ifodalaydi.

Misol: I get up at 7 o'clock every day.
(Men har kuni soat 7 da turaman.)

II. Bu zamon *to* yuklamasi tushirib qoldirilgan infinitivdan, ya'ni fe'l o'zagidan (*work*) yasaladi. Faqat III shaxs birlik (*he, she*) da fe'l o'zagiga *-s* (yoki *-es*) qo'shimchasi qo'shiladi.

Endi *to work* fe'lini shu zamonda tuslaymiz.

Singular

- I. I work every day. (Men har kuni ishlayman.)
II. You work every day. (Sen har kuni ishlaysan.)
III. He (she) works every day. (U har kuni ishlaydi.)

Plural

- I. We work every day. (Biz har kuni ishlaymiz.)
II. You work every day. (Siz har kuni ishlaysiz.)
III. They work every day. (Ular har kuni ishlaydilar.)

III. Bo'lishsiz shaklda fe'l o'zagi oldiga *do* (*do, does*) yordamchi fe'li bilan *not* inkor yuklamasi qo'yiladi.

Singular

- I. I do not work every day. (Men har kuni ishlamayman.)
II. You do not work every day. (Sen har kuni ishlamaysan.)
III. He (she) does not work every day. (U har kuni ishlamaydi.)

Plural

- I. We do not work every day. (Biz har kuni ishlaymaymiz.)
- II. You do not work every day. (Siz har kuni ishlaymaysiz.)
- III. They don't work every day. (Ular har kuni ishlaymadingilar.)

Eslatma: do not — don't [daunt]
does not — doesn't [ˈdɒznt]

IV. Soʻroq shaklda yordamchi fe'l *do (do, does)* ega oldiga chiqarib qoʻyiladi.

Singular

- I. Do I work every day? — Yes, you do. — No, you do not.
(Men har kuni ishlaymanmi? — Ha. — Yoʻq).
- II. Do you work every day? — Yes, I do. — No, I do not.
(Sen har kuni ishlaysanmi? — Ha. — Yoʻq).
- III. Does he/she work every day? — Yes, he/she does. — No, he/
she does not.
(U har kuni ishlaydimi? — Ha. — Yoʻq).

Plural

- I. Do we work every day? — Yes, you do. — No, you don't.
(Biz har kuni ishlaymizmi? — Ha. — Yoʻq).
- II. Do you work every day? — Yes, we do. — No, we don't.
(Siz(lar) har kuni ishlaysizmi? — Ha. — Yoʻq).
- III. Do they work every day? — Yes, they do. — No, they do not.
(Ular har kuni ishlaydilarmi? — Ha. — Yoʻq).

V. *Present Indefiniteda* ishlatilishi zarurligini koʻrsatuvchi turtki (signal) soʻz yoki soʻz birikmasi quyidagilar:

every day [ˈevri dei] — har kuni
every week [ˈevri wi:k] — har haftada
every month [ˈevri mʌnθ] — har oyda
every year [ˈevri jə:] — har yili
every summer [ˈevri ˈsʌmə] — har yozda
sometimes [ˈsʌmtaɪmz] — baʼzan
often [ˈɒfn] — koʻpincha
usually [ˈju:ʒuəli] — odatda
seldom [ˈseldm] — har zamonda
always [ɔ:lweɪz] — har doim

EXERCISES

I. -s (-es) qo'shimchasining o'qilishiga e'tibor berib, quyidagi fe'llarni transkripsiya qiling.

works	reads	washes
speaks	brings	finishes
looks	ends	dances
puts	lives	dresses
helps	buys	teaches

II. Quyidagi gaplarni so'roq va bo'lishsiz shakllarga qo'ying.

1. You often do your homework in the evening. 2. His brother goes to school. 3. She usually washes with cold water. 4. Richard plays tennis well. 5. Philip and Susan finish their work at 6. 6. My father comes home at 7 o'clock. 7. We meet our friends every Sunday. 8. Jane teaches at school.

III. Tagiga chizilgan gap bolaklariga so'roqlar qo'ying.

1. She teaches English at school. 2. They live in Kokand. 3. You write exercises on the blackboard. 4. Students usually look at the blackboard. 5. Our lessons begin in the morning. 6. They usually spend their holidays in the South.

IV. Nuqtalar o'rniga lozim joyga predloglar qo'ying.

1. Her father gives lectures... the University. 2. She works hard... her English. 3. They do well... English. 4. My father has dinner... home. 5. His parents come... home late. 6.1 finish... work... 5 o'clock. 7. Nick is always... time... his lessons. 8. What do you usually speak class? 9. When does he usually go... home? 10. Whom do you usually write a letter... ?

V. Quyidagi sanoq sonlarni so'z vositasida yozing.

2; 12; 20; 3; 13; 30; 4;14; 40; 5; 15; 50; 6; 16; 60; 8; 18; 80; 9; 19; 90; 100; 101; 110; 203; 365; 800; 493; 900; 1000; 186.

VI. Quyidagi tartib sonlarni so'z vositasida yozing.

1-; 2-; 3-; 4-; 5-; 6-; 7-; 8-; 9-; 10-; 11-; 18-; 30-; 34-; 42-; 50-; 53-; 90-; 98-; 100-; 102-; 209-.

VII. Quyidagi yillarni inglizcha yozing.

1870-y; 1868-y; 1825-y; 1773-y; 1919-y; 1905-y; 1900-y; 1242-y; 1066-y.

VIII. Quyidagi gaplarni ingliz tiliga tarjima qiling.

1. Akam ingliz tilini yaxshi biladi. 2. — Bu qiz kim? U — mening dugonam. 3. Siz, odatda, grammatik qoidalarni takrorlab (esga tushirib) turasiz. 4. Unga soʻzlarni oʻqituvchidan keyin qaytarish yoqmaydi. 5. Kim inglizcha gazetalar oladi? 6. U ishdan keyin har doim ham uyga bormaydi 7. Siz soat nechada nonushta qilaisiz? 8. Talabalar har kuni soat 8.30 da universitetga keladilar. 9. Siz universitetda qancha vaqt boʻlasiz?

IX. Quyidagi soʻz va soʻz birikmalari bilan gaplar tuzing.

To get up, to do morning exercises, to have breakfast, to begin at 8.30, to help smb. about the house, to do homework, to learn the new words, to watch TV, before, to go to bed.

X. Quyidagi dialogni yod oling.

Dialogue

Bobir: Hi, Rahim!

Rahim: Hi, Bobir! How are you? Are you already a student?

Bobir: Yes, I am. I am a student of the Tashkent Islamic University. And where are you now?

Rahim: I'm in Tashkent too. I work at a plant.

Bobir: What time do you come home every day?

Rahim: I work from 8 to 4 o'clock and come home at 5. And what time are your classes over?

Bobir: They are over at 3.20. And do you go anywhere after work?

Rahim: I go to the reading-hall and read books or sometimes I go to the cinema. Do you go to the cinema too?

Bobir: Oh, yes, I do. But I go there only on Sunday. Please, come to my place on Sunday. We'll go to the cinema together.

Rahim: All right, we'll have a good time together.

XI. Maqolni oʻqing va yodda tuting.

A good beginning makes a good ending.

LESSON FOUR (THE FOURTH LESSON)

Text: The Working Day of a Manager.

Grammar: I. The Cases of the Personal Pronouns.

II. **Much, little, many, few.**

The working day of a manager

Mr. Shokirov works at an office. He is a manager. His office is a long way from his house. He goes to his office by car. He works five days a week. He works on Monday, Tuesday, Wednesday, Thursday and Friday. He doesn't work at the week-end. His working day begins at 9 a.m. and it lasts 8 hours. Every day he gets a lot of letters and telegrams from foreign firms. Most of them are in English. He translates and answers them in the morning. He often receives the customers or engineers of different factories in the afternoon. He discusses a lot of questions with them. He usually finishes work at 6 p.m.

Mr. Shokirov learns English. He works hard at his English. There are foreign newspapers and journals at the office. He reads them and he sometimes translates articles from those journals. After work he stays in the office for his English lessons. Many others of his office also learn English and stay there too. They have their English three times a week. After classes they return home together.

Answer the questions:

1. What does Mr. Shokirov do?
2. Where is his office?
3. How many days does he work?
4. What time does his working day begin?
5. How long does his working day last?
6. What does he do in the morning?
7. Whom does he receive in the afternoon?
8. What foreign language do they learn?
9. Does he read articles in foreign journals?

10. Why does he stay in the office after work?
11. Do the clerks of the office learn English or German?
12. How often do they have their English?

The new words and expressions:

a manager ['mænɪdʒə] — boshliq; ish yurituvchi
 a long way from [wei] — uzoqda (sin). Far from [fa:] — uzoqda
 by car [bai kə:] — avtomobilda, mashinada
 five days a week — haftada besh kun
 three times a week — haftada uch marta
 a week-day — ish kuni (ishga boriladigan kun)
 a week-end — dam olish kunlari (shanba, yakshanba)
 to last [lɜ:st] — davom etmoq
 forelgn ['fɔ:rn] — xorijiy
 a firm [fə:m] — firma
 most of them [moust] — ulardan ko'pchiligi
 to translate ['trænsleɪt] — tarjima qilmoq
 to answer ['θ:nsə] — javob bermoq
 to receive [rɪ'si:v] — qabul qilmoq
 different ['dɪfrənt] — turli
 to discuss [dɪs'kʌs] — muhokama qilmoq
 a lot of [lɒtəv] — ko'p (ham donalab sanaladigan, ham sanalmay-
 digan otlar uchun)
 to work hard at [hθ:d] — berilib, ter to'kib ishlamoq
 a newspaper [nju:spelpə] — gazeta
 a journal ['dʒə:nəl] — jurnal
 an article ['θ:tɪkl] — maqola
 to stay [steɪ] — biror joyda qolmoq, vaqtincha yashamoq
 a clerk [klɜ:k] — idora xizmatchisi
 to return [rɪ'tə:n] — qaytmoq, qaytarib bermoq

COMMENTARIES

I. Hour so'zi vaqt birligini (60 daqiqani) ifodalaydi, o'clock so'zi esa vaqtni ko'rsatadi.

Misol: His working day lasts eight hours.

(Uning ish kuni sakkiz soat davom etadi.)

He usually finishes work at 6 o'clock.

(U, odatda, ishini soat 6 da tugatadi.)

II. Quyidagi gaplar tarjimasiga e'tibor berib, *in* predlogi qaysi holatda ishlatilishini anglab oling.

Misol:

He speaks English. (U ingliz tilida gaplashadi.)

He reads English well. (U ingliz tilida yaxshi o'qiydi.)

He writes letters in English. (U xatlarni ingliz tilida yozadi.)

He reads books in English. (U ingliz tilidagi kitoblarni o'qiydi.)

III. O'zbek tilidagi *marta* so'zi qo'shilgan sonlar ingliz tilida quyidagicha ifodalanadi.

once [wʌns] — bir marta

twice [twais] — ikki marta

three times — uch marta

Misol:

I go to the library once a week.

(Men kutubxonaga haftada bir marta boraman.)

Twice two is four.

(2 marta ikki to'rt bo'ladi.)

We have English lessons three times a week.

(Ingliz tili darsimiz haftada uch marta bo'ladi.)

IV. Kishilik olmoshlarida kelishik.

Ingliz tilida kishilik olmoshlarida ikkita kelishik bor:

Personal Pronouns

The Nominative Case
(Bosh kelishik)

The Objective Case
(Obyekt kelishik)

The Nominative Case o'zbek tilidagi bosh kelishikka mos keladi. **The Objective Case** esa o'zbek tilidagi bosh va qaratqich kelishiklaridan tashqari 4 ta (tushum, jo'nalish, chiqish va o'rin-payt) kelishiklari o'rnida (ba'zida predloglar bilan kelib) qollanadi.

The Nominative Case Who?	The Objective Case Whom?
Singular I. I (men) II. You (sen)	Singular I. Me (meni; menga) II. You (seni; senga)

III. He (u (m.r)) III. She (u (j-r)) Predmet va jonivorlar uchun: It (u)	III. Him (uni; unga) III. Her (uni; unga) It (uni; unga)
<p style="text-align: center;">Plural</p> I. We (biz) II. You (siz) III. They (ular)	<p style="text-align: center;">Plural</p> I. Us (bizni; bizga) II. You (siz(lar)ni; siz(lar)ga) III. Them (ularni; ularga)
Bu kelishikdagi olmoshlar doimo gap boshida kelib, ega vazifasini bajaradi. 1. I am a pupil. 2. He gets up at 7.	Bu kelishikdagi olmoshlar gapda to'ldiruvchi yoki qo'shma ot kesimining ot qismi vazifasini bajaradi. 1. Who is knocking? — It is me. 2. She asks me questions (vositali to'ldiruvchi) 3. Take the book from him. (predlogli to'ldiruvchi) 4. I know him. (vositali to'ldiruvchi)

V. *Much, little, many, few.*

1. **Much** (ko'p), **little** (kam) fe'l bilan bog'lanib kelib, ravish bo'lishlari mumkin. Bu holda ular gapda fe'ldan keyin qo'yiladi. Bo'lishli gaplarda ular ko'pincha **very** daraja ravishi bilan keladilar. Bo'lishsiz gaplarda esa **very little** o'rniga **very much** ishlatiladi.

Misol:

She reads very much. (U juda ko'p o'qiydi.)

He reads very little. (U juda kam o'qiydi.)

He doesn't read very much. (U kam o'qiydi.), (U ko'p o'qimaydi.)

2. **Much, little** donalab sanalmaydigan ot oldida kelganda, noaniq olmosh boladi.

Misol:

He spends much money for books. (U kitoblar uchun ko'p pul sarflaydi.)

Misol:

There is little water in the glass. (Stakanda kam suvbor.)

Ko'pincha bolishli gapdagi **little** ma'nosini bolishsiz gapda **much** vositasida beriladi.

Misol:

There isn't much water in the glass. (Stakanda kam suv bor.)
(Stakanda ko 'p suv yo'q.)

Much, little noaniq olmoshlari uchun **how much** birikmasi vositasida savol beriladi.

How much money does he spend for books?

3. **Many** (ko'p), **few** (kam) noaniq olmoshlari donalab sanaladigan otlar bilan kelib, ko'pincha bolishsiz va so'roq gaplarda ishlatiladilar. Bolishli gaplarda **many** o'rniga **a lot of** birikmasi qollanadi.

Misol: He hasn't got many English books.

(Unda inglizcha kitoblar ko'p emas.)

Has he got many English books?

(Unda inglizcha kitoblar ko'pmi?)

She has got few English books.

(Unda inglizcha kitoblar kam.)

She hasn't got many English books.

(Unda inglizcha kitoblar ko'p emas.)

She usually asks me a lot of questions.

(Odatda, u mendan ko'p savollar so'raydi.)

EXERCISES

I. Qavs ichidagi kishilik olmoshlarini obyekt kelishigiga qo'yib yozing.

1. These pictures are nice. Look at (they), please. 2. My sister is an English teacher. Everybody knows (she) at school. 3. The jokes are very funny. Read (they) at home. 4. I know this student. He studies with (we). 5. Read this text and translate (it) into Uzbek. 6. The teacher often asks (I) questions. 7. I see (he) at the bus-stop every morning. 8. Your son is waiting for (you) there.

II. Nuqtalar o'rniga obyekt kelishigidagi kishilik olmoshlarining mosini qo'ying.

1. This article is easy, translate ... at home. 2. Does he often speak to ... about his work. 3. I like this dictionary. Where do you buy ... ? 4. My brother is good at English. I do my homework with 5. He is a tall boy. Look at 6. I often write letters to my girlfriend but I seldom hear from 7. There are a lot of grammar rules in this lesson Learn ... by heart. 8. My niece is at that table. Do you see

III. Qavsdaqi so'zlardan mos keladiganini qo'yib, mashqni bajaring.

1. My friend reads (much, a lot). 2. They don't write (a lot, very much) in class. 3. My sister works (too many, too much). 4. Does your son read (many, much)? Yes, he reads (very many, very much). 5. (many, a lot of) students know two foreign languages. 6. We send letters to (much, many, a lot of) foreign firms. 7. Does your teacher give you (a lot of, very many, very much) homework? 8. The secretary gets (very little, very many) letters every day.

IV. Nuqtalar o'rniga predloglar qo'yib yozing.

1. He usually walks... home ...work. 2. His office is a long way... his house. 3. She is always ... time ... her lessons. 4. Ann lives ... a large park. She often goes ... a walk to this park... the evening. 5. Mr. Brown works ... Monday, Tuesday, Wednesday, Thursday and Friday. He doesn't work ... the week-end. 6. The manager gets a lot... letters ... foreign firms. 7. He answers... the letters ... the morning. 8. He stays... his office ... work ... his English lessons.

V. Qavsdaqi so'zlardan mosini qo'yib, mashqni bajaring.

1. His father finishes his work at 3 (hour, o'clock) on Saturday. 2. This Indian film lasts two (o'clock, hours). 3. We have lunch at the University canteen at 12 (hour, o'clock). 4. His lecture usually lasts (o'clock, an hour). 5. The clerk's working day lasts eight (o'clock, hours). 6. His first lesson begins at 9 (hour, o'clock).

VI. Nuqtalar o'rniga kerakli joyga artiklni qo'ying.

1. Mr. Smith is ... manager. He works at... office. ... office is far from his house. He begins ... work at 9 o'clock. In ... afternoon he receives... engineers. He finishes ...work at six in ... evening. After... work he stays in ... office for his English lessons. Late in ... evening he returns... home.

VII. Gaplarni ingliz tiliga tarjima qiling.

1. Ular haftada besh kun ishlaydilar: dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba va jumada. 2. Ular dam olish kunlarida ishlamaydilar. 3. — Malikaming onasi shanba kuni ishlaydimi? — Ha, chunki u — shifokor. 4. Bu film ikki soat davom etmaydi. 5. Firma kotibasi har kuni ko'p xat oladi. 6. Bizning ingliz tili o'qituvchimiz juda ko'p uy ishi beradi. 7. Bu bog'da mevali daraxtlar juda ko'p. 8. Uning ish kuni olti soat davom etadi. 9. Bizda ingliz tili darsi haftada uch marta bo'ladi. 10. Akam ingliz tilini yaxshi

biladi. U kitoblarni ingliz tilida o'qiydi. 11. Do'stim menga har oyda xat yozadi va men unga o'z vaqtida javob beraman. 12. Bu mashqlar oson. Ularni uyda bajaring.

VIII. Quyidagi so'z va so'z birikmalaridan foydalanib, o'z ish kuningiz haqida gapirib bering.

to get up early, to begin, to live a long way from, to take a bus, to be in time for, twice, the canteen, after classes (work), the library, to get books, to help smb., to do homework, to learn English, to work hard (at).

IX. Quyidagi dialogni o'qing va yod oling.

Dialogue

Alimov: I know your company is very large, Mr. Bell.

Bell: Yes, we've got offices in different cities, I meet our customers every day.

Alimov: Oh, really? And when do you usually come to the office?

Bell: At 9 in the morning.

Alimov: Do you stay in the office all day?

Bell: I often do. I read cables and telexes and write letters.

Alimov: I do that in my office in Tashkent too.

Bell: Are you always very busy?

Alimov: Yes, very busy till 6 o'clock.

Bell: I finish my work at six too and come home at 7.

Alimov: Do you always stay at home in the evenings?

Bell: Not always. Sometimes we go out, but sometimes we stay at home and read books or watch television.

Alimov: That sounds nice.

X. Maqolni o'qing va yodda tuting.

An hour in the morning is worth two in the evening.

LESSON FIVE (THE FIFTH LESSON)

Texts: I. Days and Months.

II. Seasons.

Grammar: I. It olmoshi. Shaxssiz gaplar.

II. Sifat darajalari.

III. **Present Continuous** zamoni.

DAYS AND MONTHS

There are four seasons in a year. They are: winter, spring, summer and autumn.

There are twelve months in a year. They are: January, February, March, April, May, June, July, August, September, October, November and December.

There are three hundred and sixty-five or three hundred and sixty-six days in a year.

There are thirty or thirty one days in a month, but there are twenty eight or twenty nine days in February. There are twenty nine days in February in the leap year.

There are seven days in a week. They are: Sunday, Monday, Tuesday, Wednesday, Thursday, Friday and Saturday.

The new words and expressions:

a month [mʌnθ] — oy (vaqt)

a season ['si:zn] — fasl

winter [wɪntə] — qish

spring ['sprɪŋ] — bahor

summer [sʌmə] — yoz

autumn [ɔ:təm] — kuz

a year [jə:] — yil

a leap year [li:p jə:] — kabisa yili

a week [wi:k] — hafta

SEASONS

Winter months are: December, January and February.

It is cold in winter. It often snows. Everything is covered with snow. Children play snowballs and make snowmen. Some boys play hockey. People go skating and skiing on the skating-rink. It is not so cold in Great Britain as it is in Uzbekistan. Snow does not stay on the ground for long. Winter in Great Britain is mild.

Spring months are: March, April and May. The days are longer and the nights are shorter. It is warm in spring. The sun shines brightly. The trees are covered with green leaves. The ground is covered with green grass. Fruit-trees are in blossom in spring. The birds sing in the trees. The sky is blue. The air is fresh. It sometimes rains.

It is rainy and foggy in Great Britain in spring.

Summer months are: June, July and August. It is hot in summer in Uzbekistan. The sun shines brightly. There are flowers everywhere. There is much fruit and vegetables in summer: apples, grapes, apricots, melons, water-melons and others.

People go boating, swimming or fishing. Children have their summer holidays.

It is warm in Great Britain in summer. It often rains there.

Autumn months are: September, October and November. It often rains in Uzbekistan in autumn. The sky is grey and cloudy. It gets cooler and cooler at nights.

There are red and yellow leaves on the ground in autumn. There is much cotton in the fields of the farms. Farmers pick cotton and gather fruits and vegetables too. On the second of September the new school year begins. It is rainy, foggy and cool in Great Britain in autumn.

The new words and expressions:

cold [kould] — sovuq

cool [ku:l] — salqin

warm [wɔ:m] — iliq

hot [hɒt] — issiq

to snow [tə'snəʊ] — qor yog'moq

to rain [tə'reɪn] — yomg'ir yog'moq

fog [fɒg] — tuman

to be covered ['kʌvəd] — qoplanmoq
 to go skiing ['ski:ɪŋ] — chang'i uchmoq
 to go skating ['skeɪtɪŋ] — konki uchmoq
 the skating-rink [ðə 'skeɪtɪŋ rɪŋk] — yaxmalak
 mild [maɪld] — yumshoq
 to shine [ʃaɪn] — nur sochmoq
 a leaf [li:f] — barg
 leaves [li:vz] — barglar
 a fruit- tree ['fru:ttri:] — mevali daraxt
 to be in blossom ['blɒsəm] — gullamoq (mevali daraxt)
 to go boating ['bəʊtɪŋ] — qayiq uchmoq; qayiqda sayr qilmoq
 to swim [swɪm] — suzmoq, cho'milmoq
 to go fishing ['fɪʃɪŋ] — baliq ovlamoq
 vegetable ['vedʒətəbl] — sabzavot
 cloud [klaʊd] — bulut
 to pick cotton [tə'pɪk 'kɒtn] — paxta termoq
 a new school year ['nju:'sku:ljə:] — yangi o'quv yili
 to gather ['gæðə] — yig'ishtirmoq

COMMENTARIES

I. O o harfi bir bo'g'inli so'zlar va ulardan yasalgan so'zlarda ll, lk, ld, lt, ls, st harf birikmalaridan oldin kelganda [ɔ] tovushi o'rniga [ou] unli tovushi bilan o'qiladi.

Misol:

poll [pɒl]	—	polling ['pɒlɪŋ]
folk [fɒk]	—	folky [fɒki]
cold [kəʊld]	—	colder [kəʊldə]
bolt [bəʊlt]	—	bolter [bəʊltə]
post [pəʊst]	—	postman ['pəʊstmən]
bolster [bəʊlstə]		

Quyidagi so'zlar bu qoidadan mustasnodir:

doll [dɔl] — qo'g'irchoq
 lost [lɔst] — yo'qolgan
 cost [kɔst] — (so'm) turmoq
